




Ijrochi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INVESTITSIYALAR, SANOAT
VA SAVDO VAZIRLIGI



GSP+
imtiyozlardan foydalanib,
YEVROPA ITTIFOQI
BOZORIGA
MEVA-SABZAVOT
MAHSULOTLARINI
EKSPORT QILISH

Toshkent
2025





Ijrochi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INVESTITSİYALAR, SANOAT
VA SAVDO VAZIRLIGI

GSP+ imtiyozlardan foydalanib, **YEVROPA ITTIFOQI BOZORIGA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISH**

BAKTRIA PRESS
Toshkent – 2025

GSP+ imtiyozlardan foydalanib, Yevropa Ittifoqi bozoriga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish [Matn] / tuzuvchilar G. Kaxxarova, O. Sattorov; muharrir A. Janiyeva. – Toshkent: Baktria press, 2025. – 88 b.

Tuzuvchilar: *Guzal Kaxxarova, Oydin Sattorov*

Mazkur qo'llanma Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) GmbH tomonidan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan hamkorlikda Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ)ning ikki tomonlama ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan «Xususiy sektorning xabardorligini oshirish va salohiyatini oshirish orqali O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi (YI) Umumiy imtiyozlar tizimidan (GSP+) samarali foydalanishga ko'maklashish» loyihasi doirasida tayyorlangan.

Qo'llanmani ishlab chiqishda Yevropa Ittifoqining eksport va importni qo'llab-quvvatlash xizmati Access2Markets (<https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/home>) veb-sahifasida taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Ushbu nashrda bayon etilgan qarashlar va xulosalar faqat mualliflarning nuqtai nazarini ifodalaydi va GIZ yoki O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy nuqtai nazari hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

<https://gov.uz/oz/miit>

Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) Germaniyaning federal tashkiloti bo'lib, dunyoning 130 mamlakatida faoliyat yuritadi. GIZ Germaniya Federativ Respublikasi Hukumatiga barqaror rivojlanishga ko'maklashish bo'yicha xalqaro hamkorlik sohasida o'z oldiga qo'ygan vazifalarini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlaydi. "Xususiy sektorning xabardorligi va salohiyatini oshirish orqali O'zbekistonda GSP+ dan samarali foydalanishga ko'maklashish" loyihasi O'zbekiston mahsulotlari, xususan, meva-sabzavot mahsulotlarining Yevropa bozoriga eksportini yanada oshirish maqsadida Yevropa Ittifoqi (YI)ning Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP+)dan samarali foydalanishda O'zbekistonda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

www.giz.de

KIRISH	5
1 YEVROPA ITTIFOQI BOZORI TO'G'RIDA UMUMIY MA'LUMOT VA O'ZBEKISTONDAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SALOHİYATI	6
Yevropa Ittifoqining yagona bozori	7
Yevropa Ittifoqida import qilish tartib-taomillari	8
Bojxonada rasmiylashtiriladigan hujjatlar	11
Ichki soliqqa tortish	14
Import tariflari	15
Xalqaro savdo qoidolari	16
Yevropa Ittifoqining mahsulot tasniflash tizimi	17
2 YEVROPA ITTIFOQINING UMUMIY IMTIYOZLAR TIZIMI (GSP+)	18
3 EKSPORTGA TAYYORGARLIK BOSQICHLARI	22
4 SIZNI QIZIQTIRGAN MA'LUMOTLARNI QANDAY TOPIŞ MUMKIN?	24
5 YEVROPA ITTIFOQI MAMLUKATLARIGA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISHDA QO'YILADIGAN MAXSUS TALABLAR	30
Yevropa Ittifoqi oziq-ovqat to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy talablari	30
Oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalarni nazorat qilish	36
Inson iste'moli uchun mo'ljallangan o'simliklardagi va hayvon xom ashyosidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlar qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish	38
Fitosanitariya nazorati	40
Yangi meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari	44
Oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish	47
Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy talab)	50
6 O'ZBEKISTONDAN YEVROPA ITTIFOQI MAMLUKATLARIGA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING AYRIM TURLARINI EKSPORT QILISHDA QO'YILADIGAN TALABLAR (GERMANIYA MISOLIDA)	56
Sarxil mevalar	57
Qurtilgan mevalar	58
Sarxil sabzavotlar	60
Qurtilgan sabzavotlar	61
Qurtilgan dukkaklilar	62
Sharbatlar va konsentratlar	63

7 YEVROPA ITTIFOQI MAMLUKATLARIGA EKSPORT LOGISTIKASI.	64
Yevropaga asosiy transport yo'nlari.	64
Yevropa Ittifoqining importni nazorat qilish tizimi 2 (ICS2 – Import Control System).	68
8 YEVROPA ITTIFOQI BOZORIGA KIRISH VA HAMKORLAR TOPISH USULLARI . .	70
Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish	70
Elektron savdo maydonchalaridan samarali foydalanish	72
Raqamli B2B platformalari va elektron savdo maydonchalari	74
9 EKSPORTYORLAR UCHUN FOYDALI MANBALAR	76
ILOVALAR	78

Kirish

Ushbu qo'llanma Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlariga o'z mahsulotlarini eksport qilishdan manfaatdor bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek, O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga ko'maklashuvchi tegishli kompaniyalar va davlat tashkilotlari vakillari uchun mo'ljallangan.

Mahsulotlarni Yevropa Ittifoqiga eksport qilish orqali siz dunyodagi eng yirik yagona bozorlardan biriga kirishingiz mumkin. Biroq, eksport qilishdan oldin, mahsulot sifat va xavfsizligi bo'yicha Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiqligini ta'minlashi kerak, bu esa aholi salomatligi, iste'molchilar huquqlari va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi meva-sabzavot mahsulotlari misolida Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarga Yevropa Ittifoqining Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP+) dan foydalanish bo'yicha ma'lumot berish, shuningdek, O'zbekiston mahsulotlarining Yevropa bozoriga eksportini oshirish uchun GSP+ dan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Ushbu qo'llanmani o'qib, siz Yevropa Ittifoqining Yagona bozori haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lasiz, meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga import qilish bo'yicha aniq talablar hamda standartlar, sertifikatlash va logistika bo'yicha batafsil ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, qo'llanmada Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga mahsulotlarni import qilish bilan bog'liq qonunchilik va tartib-taomillar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni topish mumkin bo'lgan manbalarga havolalar ko'rsatilgan.



1

Yevropa Ittifoqi bozori to'g'risida umumiy ma'lumot va O'zbekistondan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti salohiyati

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari dunyoda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yirik import qiluvchilari hisoblanadi. Bozorning asosiy xususiyatlari yuqori raqobat, yagona sifat standartlarining mavjudligi va umumiy qishloq xo'jaligi siyosati ([CAP – Common Agricultural Policy](#)) tomonidan qo'llab-quvvatlanishidir. Yevropa Ittifoqi barcha a'zo mamlakatlarga import qilinadigan sarxil va qayta ishlangan mahsulotlar importini tartibga solish, standartlashtirish va texnik talablar bo'yicha yagona siyosatni amalga oshiradi. Ushbu siyosat Yevropa Ittifoqi hududida mahsulotlarning erkin harakatlanishini ta'minlash, iste'molchilar salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan. Shuning uchun ham, Yevropa Ittifoqi bozori oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, gigienasi va xavfsizligi, shuningdek, atrof-muhit va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yuqori talablarni qo'yadi.

Yevropada o'simlikka asoslangan oqsillarga talab ortib bormoqda, shuningdek, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish, sog'lom va tabiiy mahsulotlarga intilish bilan bog'liq bo'lib, organik va ekologik toza oziq-ovqat va ichimliklarga ustunlik berilmoqda.

Xalqaro savdo markazi (ITC)ning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi bozori uchun yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lgan ko'plab mahsulotlari mavjud. Eksport salohiyati yuqori bo'lgan mahsulotlar qatoriga quritilgan va muzlatilgan meva-sabzavot ko'rinishidagi qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (masalan: quritilgan mevalar, yong'oqlar, dukkaklilar, ziravorlar, dorivor o'simliklar, poliz ekinlari, sharbatlar va konsentratlar) kiradi. Ular eng katta toifani, jumladan, qayta ishlashning turli bosqichlarida, xom ashyodan tortib muzlatilgan va to'liq qayta ishlangan mahsulotlargaacha bo'lgan mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

Yevropada qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni kuzatib borish uchun bir necha manba va usullardan foydalanish mumkin. Bular orasiga import, eksport, narxlar, ishlab chiqarish tendentsiyalari va siyosat ishlanmalari to'g'risida ma'lumotlar to'plami hamda o'rganishlarni taklif qiluvchi Yevropa Komissiyasining Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat ma'lumotlari portali kiradi.




Yevropa Ittifoqining yagona bozori

Yevropa Ittifoqi (YI) dunyodagi eng yirik yagona bozor hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga eksport qiluvchilar 27 mamlakat va 500 millionga yaqin iste'molchilardan iborat ulkan bozordan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ushbu eksport bozori ichki chegaralarning yo'qligi (mahsulotlar import qilingandan so'ng, ular Yevropa Ittifoqi ichida erkin harakatlanadi) va umumiy, uyg'unlashtirilgan va shaffof qoidalar va me'yorlar to'plami bilan ifodalanadi. Biroq, ichki chegaralar yo'qligiga qaramay, Yevropa Ittifoqi hali ham tashqi chegaralarga ega. Shuning uchun eksportchilar Yevropa Ittifoqining yagona bozorida mahsulot sotishda o'z mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladigan talab va me'yoriy qoidalardan xabardor bo'lishlari zarur.

Yevropa Ittifoqi o'zida Bojxona ittifoqini ifoda etadi, ya'ni Yevropa Ittifoqining 27 ta a'zo mamlakatlari yagona bojxona hududini tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki:

- Yevropa Ittifoqi ichkarisida harakatlanuvchi tovarlar uchun bojxona bojlari to'lanmasligini;

YEVROPA ITTIFOQI BOJXONA HUDUDIGA KIRUVCHI A'ZO DAVLATLAR





- ularning barchasi Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlardan import qilinadigan tovarlarga belgilangan yagona bojxona tarifiga egaligini;
- qonuniy olib kirilgan mahsulot bojxona nazorati bo'yicha hech bir boshqa chora-tadbirsiz butun Yevropa Ittifoqi hududida erkin muomalaga chiqarilishini anglatadi.

Mahsulotlarning erkin harakatlanishi prinsipi Yevropa Ittifoqi hududining istalgan qismiga mahsulotlarni olib kirish va ularni sotish imkoniyati Yevropa Ittifoqi bozorining tamal toshidir. Ma'lum darajada murakkab va har xil milliy qonunlar Yevropa qoidalarining yagona to'plami bilan almashtirildi, bu esa Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlarida savdo-sotiq olib borishni xohlovchi kompaniyalar uchun xarajatlarni kamaytirish hamda eksport tizimini soddalashtirish imkonini berdi.

Yevropa Ittifoqi mahsulotlari bozori 27 ta mamlakat o'rtasida puxta uyushtirilgan va kelishilgan bozordir. Biroq Yevropa Ittifoqi bozorining samarali faoliyatini ta'minlash uchun kompaniyalar muayyan qoidalarga rioya qilishi va halol raqobat prinsiplariga amal qilishi kerak.

Yevropa Ittifoqi savdo tizimi qanday tashkil etilganligini, qanday tartib-qoidalarga rioya qilish kerakligini va qanday hujjatlarni to'ldirish kerakligini tushunish uchun siz Yevropa Ittifoqining eksport va importni qo'llab-quvvatlash onlayn portalida taqdim etilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqing: **Access2Markets** (<https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/home>).

Eksport va importni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa Ittifoqining ushbu onlayn portali tegishli tariflar, soliqlar, qoidalar va talablar, Yevropa Ittifoqidagi imtiyozli kelishuvlar va kvotalar, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlardagi biznesga yordam beruvchi statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Onlayn portal haqida batafsil ma'lumotlar ushbu qo'llanmaning 4-bo'limida keltirilgan.

Yevropa Ittifoqida import qilish tartib-taomillari



Yevropa Ittifoqining Bojxona kodeksi. Yevropa Ittifoqining Bojxona kodeksi – Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan mamlakatlar bilan savdo qilishda Yevropa Ittifoqi bojxona organlarining ishini tartibga soluvchi barcha qoidalarining to'plamini o'zida ifoda etadi. Ushbu qoidalar Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlarida bojxona tartib-taomillarining bir xilligini va ochiq– oshkoraligini kafolatlaydi.

- **Yevropa Ittifoqining Bojxona kodeksi** (YI Reglamenti № 952/2013)
- **Qoidalarni tatbiq etish** (YI Reglamenti № 2015/2447 – umumiy tahrir).

Xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ro'yxatdan o'tkazish (EORI raqami)

Xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiyalash tizimining raqami (EORI raqami) – bu Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning



bojxona organi tomonidan YI bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan faoliyatda ishtirok etuvchi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga (ham kompaniyalarga, ham jismoniy shaxslarga) beriladigan noyob kodidir.

Hamjamiyat bojxona hududining tashqarisida joylashgan import qiluvchilarga EORI raqami ular birinchi marta quyidagi hujjatlarni taqdim etayotganlarida beriladi:

- bojxona deklaratsiyasi;
- yetib kelganlik haqida umumiy deklaratsiya (ENS);
- jo'nab ketganlik haqida umumiy deklaratsiya (EXS).

Ushbu raqamdan YI bojxona organlari bilan aloqaga kirishganda Hamjamiyat hududida identifikator talab etilgan hollarda, masalan, bojxona deklaratsiyalarida foydalanish kerak bo'ladi.



Yetib kelganlik haqida umumiy deklaratsiya (ENS). Yevropa Ittifoqining bojxona hududiga olib kiriladigan mahsulotlarga yig'ma deklaratsiya ilova qilinishi kerak, u tovarlar tushirilgan joyda bojxona organlariga taqdim etilishi kerak. 2025-yilning 1-aprelidan boshlab avtomobil va temir yo'l tashuvchilari yuklari Yevropa Ittifoqiga yetib borgunga qadar ICS2 tizimi bo'yicha yangi kirish deklaratsiyasini (ENS) to'ldirishlari kerak bo'ladi. Ilgari asosan havo transportida qo'llanilgan ICS2, endi temir yo'l va avtomobil transportida qo'llaniladi. ICS2 haqida batafsil ma'lumot 7-bo'limda keltirilgan.



Bojxona organlari tomonidan ma'qullangan tartib-taomillar. Tovarlari YI hududidagi birinchi bojxonaga yetib kelishi bilan vaqtinchalik omborga joylashtiriladi (agar tovar dengizda tashilayotgan bo'lsa, saqlash muddati 45 kundan oshmasligi kerak, barcha qolgan hollarda ushbu muddat 20 kundan oshmasligi kerak). Ushbu vaqtdan boshlab, bojxona organlari tomonidan ma'qullangan tartib-taomillar berilmagunga qadar yoki vazifa belgilanmagunga qadar tovar bojxona nazorati obyekti hisoblanadi:

1. Erkin muomalaga chiqarish

YI hududiga import qilishga taalluqli quyidagi barcha shartlarga to'liq amal qilinganda tovarlar „erkin muomalaga chiqariladi“:

- barcha tegishli bojxona bojlari, QQS va aksiz yig'implari to'langan bo'lsa;
- barcha tegishli ruxsatnomalar va sertifikatlar taqdim etilgan bo'lsa (masalan, kvotalar, gigiyenik talablar va hokazolar uchun).

2. Tranzit tartib-taomili

YI a'zo davlatlarining ikkita turli bojxona organlari o'rtasida tovarlarni tashib o'tishda bojxonada rasmiylashtirish qabul qiluvchi mamlakatning bojxona organlariga o'tkaziladi.



3. Bojxona omborida saqlash

Import qilingan tovarlar ishonchli omborxonalarda saqlanishi mumkin, bunda bojlar, soliqlar to'lash va savdo siyosatiga taalluqli chora-tadbirlarga rioya qilish tovarga bojxona organlari tomonidan ma'qullangan boshqa tartib-taomil qo'llanmagunga qadar vaqtinchalik to'xtatib turiladi.

4. Bojxona hududida qayta ishlash

Tovarlar bojxona organlari nazorati ostida qayta ishlanishi va YI hududidan tashqariga qayta eksport qilinishi uchun bojlar, soliqlar to'lamay va savdo siyosatiga taalluqli chora-tadbirlarga rioya qilmay YI hududiga import qilinishi mumkin. Agar oxirgi mahsulot oxir-oqibat eksport qilinmasa, unga tegishli bojlar solinadi va tegishli chora-tadbirlar qo'llaniladi.

5. Vaqtinchalik olib kirish

Tovarlar hech bir o'zgartirishsiz qayta eksport qilishga mo'ljallangan bo'lsa, import uchun olinadigan boj to'lamay YI hududiga olib kirilishi mumkin. Vaqtinchalik olib kirish uchun belgilangan maksimal muddat 2 yilni tashkil etadi.

6. Erkin zonaga yoki omborga olib kirish

Erkin zonalar YI bojxona hududidagi o'ziga xos zonalar bo'lib, ushbu zonalarga tovarlarni ularga nisbatan bojxona organlari tomonidan ma'qullangan boshqa tartib-taomil qo'llanmagunga qadar yoki qayta eksport qilinmagunga qadar bojxona bojlari, QQS va aksiz bojlarini to'lamay hamda savdo siyosatiga taalluqli chora-tadbirlarga rioya qilmay olib kirishga ruxsat berilgan. Bundan tashqari, ushbu tartib-taomil doirasida tovar bilan uni qayta ishlash va takroran qadoqlash kabi oddiy operatsiyalarni bajarish mumkin.

Bojxona deklaratsiyasi – yagona ma'muriy hujjat (SAD)

Tovarlarga bojxona organlari tomonidan ma'qullangan rejim yoki vazifalar yuklanishi Yagona ma'muriy hujjat (SAD) orqali amalga oshiriladi. SAD bojxona deklaratsiyasi bojxona organlariga import qiluvchi yoki uning vakili tomonidan elektron ko'rinishda (YI har bir davlatning o'z tizimi amal qiladi) yoki tegishli bojxona rasmiylashtirish punktiga taqdim etiladi.

Eksport qiluvchi uchun SAD tarkibini bilishi va tushunishi muhimdir, chunki u eksport qiluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida to'ldiriladi. Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvining muvaffaqiyati mavjud ma'lumotlarning to'g'riligiga, sertifikatlar, hisob-varaqlar, transport yukxatlari va barcha qo'shimcha hujjatlarning rasmiylashtirilishiga bog'liq.

SAD deklaratsiyasi transport turidan qat'i nazar, har qanday mahsulotni har qanday bojxona tartib-taomillariga joylashtirishni ta'minlaydi.



Bojxona qiymati. Ko'pchilik bojxona bojlari va QQS import qilinayotgan tovar qiymatining foizi ko'rinishida ifodalangan. Bojxona organlari tomonidan bojxona qiymatini belgilash tovarning Yevropa Ittifoqiga olib kirilgan vaqtdagi tijorat qiymatiga – umumiy xarid qiymatiga va tovarni bojxona hududiga olib kiriladigan punktgacha yetkazib berish qiymatiga asoslanadi. Ushbu qiymat oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan narxga har doim ham mos kelavermaydi va maxsus tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin.

Bojxonada rasmiylashtiriladigan hujjatlar

Yevropa Ittifoqida bojxona rasmiylashtiruvi uchun quyidagi asosiy hujjatlar talab qilinadi:

- Hisob-faktura;
- Bojxona qiymati deklaratsiyasi;
- Transport yuk-xatlari;
- Yukni sug'urta qilish hujjati;
- Qadoqlash varaqchasi;
- Yagona boshqaruv hujjati.

Mahsulot toifasiga qarab, qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.



Hisob-faktura – bu eksport qiluvchi va import qiluvchi o'rtasida bitim tuzilganligining dalili yoki isbotidir. Agar tovar naqd bo'lsa, eksport qiluvchi import qiluvchiga tovarga haq to'lash uchun tijorat shartnomasini taklif qiladi. Tijorat hisob-fakturada bitim to'g'risida asosiy ma'lumot keltirilgan va uni bojxonada rasmiylashtirish uchun ko'rsatish shart.



Bojxona qiymatining deklaratsiyasini – import qilinayotgan mahsulotlarning qiymati 20 000 yevrodan oshib ketgan taqdirda bojxona organlariga taqdim etish shart. Bojxona qiymatining deklaratsiyasi DV 1 shakliga muvofiq (Komissiyaning №2016/341-sonli Reglamentiga (YI) muvofiq) tuzilishi kerak. Ushbu shaklni Yagona ma'muriy hujjat (SAD) bilan birgalikda ko'rsatish zarur.

Ushbu talablarning asosiy maqsadi bojxona bojlarini undirish uchun bojxona qiymatini (soliq solish qiymatini) aniqlash uchun bitim qiymatini belgilashdan iborat.

Bojxona qiymati tovarning qiymatiga, shu jumladan Yevropa Ittifoqi chegaralari birinchi kesib o'tilgunga qadar sarflangan barcha xarajatlarga (masalan, tijorat narxi, tashish, sug'urta) mos keladi. Odatda, bojxona qiymati bitim qiymatidan (import qilinayotgan tovarlar uchun to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxdan) kelib chiqqan holda



belgilanadi. Ayrim hollarda tovarni import qilish bitimining qiymatiga tuzatish kiritilishi kerak, bu esa uning oshishi yoxud kamayishini anglatadi.



Transport hujjatlar. Transport vositasiga qarab uni ro'yxatdan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlarni to'ldirish hamda Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo import qilayotgan davlatning bojxona xizmatlariga taqdim etish zarur:

- **Konosament (BL).**
- **Konosament „FIATA“.**
- **Avtotransport yukxati (CMR).**
- **Aviatransport yukxati (AWB).**
- **Temir yo'l transporti yukxati (CIM).**
- **Karnet ATA.**
- **Xalqaro yo'l tashuvlari daftarchasi (TIR).**

Olib kirishga doir bojxona deklaratsiyasi (SAD). Yevropa Ittifoqiga (YI) import qilinayotgan barcha tovarlar a'zo davlatning tegishli bojxona organlarida Yagona ma'muriy hujjat (SAD) orqali e'lon qilinishi kerak. Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlari uchun tovar olib kirishga doir bojxona deklaratsiyasining standart shaklidir va Hamjamiyatning bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi 952/2013-sonli Kengash Reglamentida (YI) belgilab berilgan.

Deklaratsiya bojxonasida rasmiylashtirilayotgan a'zo davlatning bojxona organlari tomonidan ruxsat berilgan Yevropa Ittifoqining rasmiy tillaridan birida tuzilgan bo'lishi kerak:

Olib kirishga doir bojxona deklaratsiyasi SAD:

- bojxona organlarining tizimiga ulangan ruxsat berilgan kompyuter tizimidan foydalangan holda yoki;
- bojxona organlarining tegishli idorasiga yetkazib berish orqali topshiriladi.

Deklaratsiyada quyidagi asosiy ma'lumotni ko'rsatish zarur:

- operatsiyaga jalb qilingan tomonlarning (import qiluvchi, eksport qiluvchi, vakil va hokazolarning) identifikatsiya ma'lumotlari;
- bojxona organlari tomonidan ma'qullangan tartib-taomil (erkin muomalaga chiqarish, ichki iste'molga chiqarish, vaqtinchalik olib kirish, o'tkazish va hokazo);
- yuklarning identifikatsiya ma'lumotlari (TARIC kodi, vazni, birligi), joylashgan joyi va o'rami;
- tashish usuli to'g'risida ma'lumot;
- tovar ishlab chiqarilgan mamlakat, uni eksport qilayotgan mamlakat va tovar jo'natilayotgan mamlakat to'g'risidagi ma'lumotlar;



- tijorat ma'lumoti va moliyaviy ma'lumot (Inkoterms, hisob-fakturaga muvofiq qiymat, hisob-faktura valyutasi, almashish kursi, sug'urta va hokazo);
- olib kirishga doir bojxona deklaratsiyasiga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati SAD (olib kirish uchun ruxsat, ko'zdan kechirish sertifikatlari, tovar ishlab chiqarilgan mamlakat to'g'risidagi hujjat, transport hujjati, tijorat hisob-fakturas);
- olib kirishga doir deklaratsiya va soliq to'lash usuli (bojxona bojlari, QQS, aksizlar va hokazolar).

Olib kirishga doir deklaratsiya SAD sakkiz nusxada topshiriladi; operator blankalarni operatsiya turiga qarab to'liq yoki qisman to'ldiradi.

SAD deklaratsiyasi namunasi:

EUROPEAN UNION				DECLARATIONS				A. OFFICE OF DEPARTMENT			
Copy for the consignee/Exporter	1	1. Country of origin			2. Port of origin	3. Country of destination	4. Port of destination	5. Date of departure	6. Date of arrival	7. Date of receipt	8. Date of payment
	2	2. Country of destination			3. Port of destination	4. Port of destination	5. Date of departure	6. Date of arrival	7. Date of receipt	8. Date of payment	
	3	3. Country of origin			4. Port of origin	5. Country of destination	6. Port of destination	7. Date of departure	8. Date of arrival	9. Date of receipt	
	4	4. Country of destination			5. Port of destination	6. Port of destination	7. Date of departure	8. Date of arrival	9. Date of receipt	10. Date of payment	
	5	5. Country of origin			6. Port of origin	7. Country of destination	8. Port of destination	9. Date of departure	10. Date of arrival	11. Date of receipt	
	6	6. Country of destination			7. Port of destination	8. Port of destination	9. Date of departure	10. Date of arrival	11. Date of receipt	12. Date of payment	
	7	7. Country of origin			8. Port of origin	9. Country of destination	10. Port of destination	11. Date of departure	12. Date of arrival	13. Date of receipt	
	8	8. Country of destination			9. Port of destination	10. Port of destination	11. Date of departure	12. Date of arrival	13. Date of receipt	14. Date of payment	
	9	9. Country of origin			10. Port of origin	11. Country of destination	12. Port of destination	13. Date of departure	14. Date of arrival	15. Date of receipt	
	10	10. Country of destination			11. Port of destination	12. Port of destination	13. Date of departure	14. Date of arrival	15. Date of receipt	16. Date of payment	
11. Declaration of origin				12. Declaration of destination				13. Declaration of receipt			
14. Declaration of payment				15. Declaration of receipt				16. Declaration of payment			
17. Declaration of receipt				18. Declaration of payment				19. Declaration of receipt			
20. Declaration of payment				21. Declaration of receipt				22. Declaration of payment			
23. Declaration of receipt				24. Declaration of payment				25. Declaration of receipt			
26. Declaration of payment				27. Declaration of receipt				28. Declaration of payment			
29. Declaration of receipt				30. Declaration of payment				31. Declaration of receipt			
32. Declaration of payment				33. Declaration of receipt				34. Declaration of payment			
35. Declaration of receipt				36. Declaration of payment				37. Declaration of receipt			
38. Declaration of payment				39. Declaration of receipt				40. Declaration of payment			
41. Declaration of receipt				42. Declaration of payment				43. Declaration of receipt			
44. Declaration of payment				45. Declaration of receipt				46. Declaration of payment			
47. Declaration of receipt				48. Declaration of payment				49. Declaration of receipt			
50. Declaration of payment				51. Declaration of receipt				52. Declaration of payment			
53. Declaration of receipt				54. Declaration of payment				55. Declaration of receipt			
56. Declaration of payment				57. Declaration of receipt				58. Declaration of payment			
59. Declaration of receipt				60. Declaration of payment				61. Declaration of receipt			
62. Declaration of payment				63. Declaration of receipt				64. Declaration of payment			
65. Declaration of receipt				66. Declaration of payment				67. Declaration of receipt			
68. Declaration of payment				69. Declaration of receipt				70. Declaration of payment			
71. Declaration of receipt				72. Declaration of payment				73. Declaration of receipt			
74. Declaration of payment				75. Declaration of receipt				76. Declaration of payment			
77. Declaration of receipt				78. Declaration of payment				79. Declaration of receipt			
80. Declaration of payment				81. Declaration of receipt				82. Declaration of payment			
83. Declaration of receipt				84. Declaration of payment				85. Declaration of receipt			
86. Declaration of payment				87. Declaration of receipt				88. Declaration of payment			
89. Declaration of receipt				90. Declaration of payment				91. Declaration of receipt			
92. Declaration of payment				93. Declaration of receipt				94. Declaration of payment			
95. Declaration of receipt				96. Declaration of payment				97. Declaration of receipt			
98. Declaration of payment				99. Declaration of receipt				100. Declaration of payment			



Ichki soliqaq tortish



Qo'shimcha qiymat solig'i (QQS). Qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) stavkalari Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda bir-biridan farq qiladi. Yevropa Ittifoqida standart QQS stavkasi kamida 15% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir a'zo davlat kelishilgan ro'yxatdan olingan mahsulotlar va xizmatlarning cheklangan to'plami uchun kamida 5% dan ikkita chegirmali stavka, 5% dan past bo'lgan bitta o'ta pasaytirilgan stavka va bitta nol stavkani qo'llashi mumkin.

Import qilinayotgan tovarlarga QQS solinadi. Bu soliq, odatda, tovarni erkin muomalaga chiqarish maqsadida bojxonada rasmiylashtirish tartib-taomillarini bajarish vaqtida undiriladi. Agar tovarlar bitta a'zo davlatga import qilinayotgan bo'lib, boshqa davlatda iste'mol qilishga yoki foydalanishga mo'ljallangan bo'lsa, bunday tovarlarga QQS to'lashni qoldirish rejimi qo'llash mumkin. Ushbu rejim doirasida QQS tovar Yevropa Ittifoqiga olib kirilgan a'zo davlatda emas, balki tovar jo'natilayotgan mamlakatda undiriladi.

Soliq solinishi lozim bo'lgan bitimlar tovarlar va xizmatlar yetkazib beriladigan a'zo davlat tomonidan ma'qullangan stavkalar va qoidalar bilan tartibga solinadi.



Siz mahsulotingiz uchun QQS stavkasini Access2Markets (<https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/home>) veb-sahifasida «Mening savdo yordamchim» – My Trade Assistant bo'limida, shuningdek, ushbu qo'llanmaning 1-ilovasida bilib olishingiz mumkin.



Import uchun QQS to'lash bojxona bojlari to'lash kabi amalga oshiriladi. Soliqqa tortilayotgan shaxs Yagona ma'muriy hujjatni to'ldirishi va bojxona organlariga ko'rsatishi kerak. Ushbu hujjatda tovar qiymati, uning kelib chiqishi, yukni qabul qiluvchi, tovar jo'natilayotgan punkt, narxi, vazni va hokazolar haqidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.



Aksiz yig'implari. Aksiz yig'implar iste'molchining sog'lig'iga zarar yetkazayotgan yoki atrof-muhitni ifloslantirayotgan tovarlarga solinadigan bilvosita soliqlardir. Yig'implar iste'molchi uchun tovarning narxini oshiradi, shu orqali ularning iste'mol qilinishi va ushbu tovarlar chiqaradigan chiqindilar miqdori kamayishini rag'batlantiradi.

Aksiz yig'imi solinadigan tovarlarni ko'chirish va saqlashning YIning 2020/262 Direktivasi bilan belgilangan **umumiy qoidalar** mineral yoqilg'i, tamaki va tamaki mahsulotlari, alkogol hamda alkogolli ichimliklarni o'z ichiga oladi.

YI tomonidan belgilangan stavkalar eng kichik stavkalardir. A'zo davlatlar o'z ehtiyojlariga muvofiq yuqoriroq soliq stavkasini belgilashi mumkin.



Import tariflari



Tariflarni undirish yoki bekor qilish xalqaro savdo siyosatining eng muhim jihatlaridan biridir. Savdo tarifi – bu davlatlarning (yoki bojxona ittifoqlarining) siyosiy chegaralarini kesib o'tayotgan tovarlarga solinadigan soliq yoki bojdir. Import uchun bojar eng keng tarqalgan bojlardir va boshqa mamlakatdan olib kirilayotgan tovarlarga solinadigan soliqni o'z ichiga oladi.

Tasniflashga doir qaror

Yevropa Ittifoqining tasniflashga doir qarorining tizimi eksport uchun mo'ljallangan tovarlarning tarif tasnifini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Tasnifga doir qarorni olish uchun tovarlarni eksport qilmoqchi bo'lgan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning bojxona organiga Tasnifga doir qaror olish uchun **ariza shaklidan foydalanib** ariza topshirish zarur. Tasnifga doir qaror qaysi a'zo davlat uni qabul qilganidan qat'iy nazar Yevropa Ittifoqining butun hududida amal qiladi.

Tasnifga doir qaror siz eksport qilmoqchi bo'lgan tovarlarning tarif tasnifi haqida yakdilliyuridik ma'lumot beradi. Bu ma'lumot bojxona bojarini va import litsenziyasini olish zarurati mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash uchun asosdir.

Odatda, tasnifga doir qarorning amal qilish muddati 6 yilni tashkil etadi. Milliy bojxona organlari tomonidan taqdim etilgan barcha tasnifga doir qarorlar **Tasnifga doir qarorlarning Yevropa ma'lumotlar bazasida** saqlanadi.

YI tariflari bo'yicha maslahatlar va tavsiyalar

Tovarlaringsizga qaysi tarif qo'llanilishini Yevropa Ittifoqining Access2Markets eksport va importni qo'llab-quvvatlash onlayn portalida "Mening savdo yordamchim" bo'limida bilib olishingiz mumkin.

Shuningdek «Import tariflari» bo'limida tarif kvotalari, dempingga qarshi bojar va importning standart qiymati haqida ma'lumotlar mavjud.

Eksportni qo'llab-quvvatlash xizmatining sahifasida joylashtirilgan ma'lumot «uyg'unlashgan qonun-qoidalarga asoslangan». Bu ushbu qonun-qoidalar Yevropa Ittifoqining barcha 27 ta mamlakatida amal qilishini anglatadi. Demak, Eksportni qo'llab-quvvatlash xizmatining veb-sahifasida import tarifini izlashda tovar jo'natilayotgan mamlakatni ko'rsatish shart emas. Bojxona ittifoqi doirasidagi import tariflari to'g'risidagi ma'lumot Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlari uchun amal qiladi.

Biroq, Access2Markets veb-sahifasining Talablar va soliqlar bo'limida Qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) qidirayotganda, siz boradigan mamlakatni ko'rsatishingiz kerak, chunki turli Yevropa Ittifoqi mamlakatlari turli QQS stavkalaridan foydalanadi.



Tasniflash qarorlari to'g'risidagi qoidalar Jamiyatning Bojxona kodeksining 6-12-moddalarida, qo'shimcha ravishda Jamiyatning Bojxona kodeksini qo'llash qoidalarining 5-14-moddalarida aniqlangan holda belgilanadi.



Erga Omnes boji. Access2Markets veb-sahifasida Yevropa Ittifoqiga mahsulotlarni eksport qilishda to'lanishi kerak bo'lgan import tariflari to'g'risidagi ma'lumotlarni qidirishda «Erga omnes» tarifi tez-tez tilga olinadi.

Tovarlarni Yevropa Ittifoqiga eksport qilishda to'lash zarur bo'lgan import tariflari bo'yicha ma'lumotni izlash vaqtida Eksportni qo'llab-quvvatlash xizmatining veb-sahifasida «erga omnes» degan tarif tez-tez tilga olinadi.

Erga omnes – barcha uchun amal qiladigan majburiyatlar yoki huquqlarni anglatuvchi yuridik termindir. Masalan, agar tovarga nisbatan «Erga omnes» bojxona bojidan foydalanilsa, u barcha mamlakatlardan olib kiriladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Biroq tovarlarni rivojlanayotgan mamlakatlardan YI bozoriga import qilish uchun foydali shartlar nazarda tutilgan. To'liq tarifni yoki umuman hech qanday tarifni to'lashingizga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shu sababli «Erga omnes» tarifi yonida mamlakatingiz uchun preferensial kelishuvni va tegishli imtiyozli tariflarni topish mumkin.

Mamlakatingiz uchun YI bilan bir qancha preferensial kelishuvlar nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Bu holda siz talablarga rioya qilib, eng foydalisini tanlaysiz.

Jahon savdo tashkilotining tilida «Erga omnes», odatda, «imkon qadar qulaylik yaratib berish rejimi tatbiq etiladigan davlat» deb ham ataladi.

Xalqaro savdo qoidalar

Yevropa Ittifoqi erkin savdo siyosatini olib boradi. **Jahon Savdo Tashkiloti (JST)** a'zosi sifatida u belgilangan tariflarni qo'llashga majburdir va o'zining savdo hamkorlari o'rtasida kamsitish huquqiga ega emas.

Biroq, Yevropa Ittifoqi diskriminatsion savdo siyosatiga qarshi kurashish uchun quyidagi **savdo himoyalash vositalaridan** foydalanadi:

- **kuzatuv choralari** – nazorat qilish maqsadida a'zo davlatlarning milliy organlari tomonidan beriladigan importga majburiy ruxsatnomalar. Ushbu chora-tadbirlar odatda qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va metallurgiya mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladi.
- yevropalik ishlab chiqaruvchilarni juda past narxlarda ommaviy importdan himoya qilish maqsadida ayrim uchinchi mamlakatlardan ayrim tovarlar importi uchun **miqdor cheklov**lari (**antidemping choralari**).



- **ehtiyot choralari** – Yevropa Ittifoqi sanoatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ayrim tovarlarni import qilishda muhim vaziyatlarda vaqtinchalik cheklovlar. Ushbu choralar JSTning **Ehtiyot choralari to'g'risidagi kelishuviga** muvofiq bo'lishi kerak.

Yevropa Ittifoqining mahsulot tasniflash tizimi



Xalqaro savdoning **Uyg'unlashtirilgan tizimi** mahsulotlarni 6 xonali toifalarga ajratadi.

Birlashtirilgan nomenklatura deb ataladigan Yevropa tovarlari ro'yxati mahsulot turini batafsilroq tavsiflash uchun qo'shimcha ma'lumot qatlami bo'lib, shuning uchun 8 xonali formatdan foydalanadi.

Import bo'yicha bojxona tariflari haqida gap ketganda, Yevropa Ittifoqi Tarif Axborot Tizimi (**TARIC**) boshqa ma'lumot qatlami bo'lib, 10 xonali kod bo'lib, Yevropa Ittifoqining barcha import va eksport choralarini birlashtiradi, jumladan tariflarni to'xtatib turish, tarif kvotalari, tarif imtiyozlari, antidemping bojlari, miqdoriy cheklovlar, embargolar va eksport subsidiyalari. Shunday qilib, TARIC ularning butun Yevropa Ittifoqida bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydi va tovarlarni eksport qilishda qo'llaniladigan barcha choralar haqida aniq tasavvur beradi. Shuningdek, u Yevropa Ittifoqi bo'ylab statistik ma'lumotlarni to'plash imkoniyatini beradi.



2 Yevropa Ittifoqining umumiy imtiyozlar tizimi (GSP+)



Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP) rivojlanayotgan mamlakatlarning Yevropa Ittifoqi davlatlariga eksportini qo'llab-quvvatlash uchun Yevropa Ittifoqi savdo siyosatining asosiy vositasidir. 2021-yil 10-apreldan boshlab O'zbekiston Yevropa Ittifoqiga 6200 turdagi mahsulotlarni bojsiz (nol tarif stavkasi bo'yicha) olib kirish imkonini beruvchi Yevropa Ittifoqining GSP+ Umumiy imtiyozlar tizimiga benefitsiar davlat maqomini oldi. Yevropa Ittifoqi O'zbekiston uchun imtiyozli GSP+ tizimini 2027-yil oxirigacha uzaytirdi.

O'zbekistondan Yevropa Ittifoqiga imtiyozlar ro'yxatiga kiritilgan mahsulotlarni eksport qilmoqchi bo'lgan har qanday korxona GSP+ imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Ushbu tizim bo'yicha mahsulotlarni eksport qilish uchun quyidagi asosiy shartlar bajarilishi lozim:

1. Mahsulotlar GSP+ benefitsiar mamlakati bo'lgan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yoki qayta ishlangan bo'lishi kerak;
2. O'zbekistondan Yevropa Ittifoqiga tashish jarayonida olib kirilayotgan mahsulotlar o'zgarmasligi yoki ularni yaxshi holatda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan jarayonlarga duchor bo'lmasligi kerak;
3. Mahsulotlarning O'zbekistonda ishlab chiqarilganligini isbotlovchi haqiqiy tasdiqnoma taqdim etilishi zarur. Endilikda eksportchining ro'yxatdan o'tkazish tizimi REX (Registered Exporter System) orqali har bir exportchining alohida raqamiga ega bo'lgan sertifikati A shaklidagi kelib chiqish sertifikati o'rnini egallaydi va ushbu REX raqamini "O'zekspertiza" AJ ning xizmatlar portaliga onlayn ariza yuborish orqali olish mumkin: <https://www.expertiza.uz/uz/>

GSP doirasida kelib chiqish qoidalari qanday amal qiladi?



GSP doirasida kelib chiqish qoidalari qanday amal qiladi?

Agar mahsulot «to'liq olingan» yoki «import materiallardan yetarlicha qayta ishlangan» bo'lsa, GSP benefitsiar mamlakatida ishlab chiqarilgan deb hisoblanadi. Agar mahsulot import materiallardan foydalangan holda tayyorlangan bo'lsa, ushbu mahsulotga xos bo'lgan mezonlar kelib chiqish qoidalari muvofiqi uchun zarur bo'lgan qayta ishlash darajasini belgilaydi.



Korxonalar tariflar, kelib chiqish qoidalari va Yevropa Ittifoqi bozoriga kirish uchun boshqa talablar to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Access2Markets ma'lumotlar bazasidan foydalanishlari mumkin.



O'zbekistondan Yevropa Ittifoqiga eksport qilinadigan asosiy mahsulotlarga qayta ishlangan meva va sabzavotlar (quritilgan, konservalangan, sharbatlar), quritilgan mevalar, yong'oqlar (yong'oq, bodom va pista), yeryong'oq, dukkaklilar (loviya, no'xat), poliz ekinlari (qovun, tarvuz va qovoq), qo'ziqorin, ziravorlar va dorivor o'simliklar moyi (bodom yog'i) kiradi.

1-jadval: Yevropa Ittifoqining quritilgan mevalar va yong'oqlarga bojxona tariflari

TIF TN kodi	Tavsifi	Uchinchi mamlakat MFN* tarifi	GSP+ tarifi
0813	Quritilgan mevalar (0801-0806 dan tashqari); ushbu guruhning mevalari yoki quritilgan mevalari aralashmalari	5,60%	0%
0813 10	 Quritilgan o'rik	5,60%	0%
0813 20	 Quritilgan olxo'ri	5,60%	0%
0813 30	 Quritilgan olma	5,60%	0%
0813 40	 Boshqa quritilgan mevalar	5,60%	0%
0813 50	 Ushbu guruhda tasniflangan yong'oq yoki quritilgan mevalarning aralashmalari	4,00 – 9,60%	0%
0802 31	 Po'stloqli yong'oq	4,00%	0%
0802 32	 Po'stlog'idan tozalangan yong'oq	5,10%	0%

* MFN – Savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi



Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining (TIF TN) kodlari bilan GSP+ maxsus imtiyozlar tizimiga kiritilgan mahsulotlarning batafsil ro'yxatini 2-ilovada topish mumkin.

Bojxona to'lovlariga kelsak, GSP+ ro'yxatiga kiritilgan barcha mahsulotlarga nisbatan yevropalik import qiluvchi tegishli hujjatlar mavjud bo'lganda bojxona bojlarini to'lamaydi.

GSP+ bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar Yevropa Ittifoqining veb-sahifasida mavjud:

<https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/content/generalised-scheme-preferences-plus-gsp>



Eksportchilarni ro'yxatga olish (REX) tizimi

Umumiy qiymati 6000 yevrodan ortiq bo'lgan mahsulotlarni GSP+ doirasida Yevropa Ittifoqiga bojsiz eksport qilish uchun o'zbekistonlik eksportchi Yevropa Ittifoqi qoidalarida belgilangan tartibda Yevropa Ittifoqi axborot tizimi – REX (Ro'yxatdan o'tgan eksportchi tizimi)da oldindan ro'yxatdan o'tishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazishning dastlabki shaklini quyidagi havola orqali ko'rish mumkin: <https://customs.ec.europa.eu/rex-pa-ui/#/create-preapplication>.

Ushbu tizim sertifikat bermasdan hisob-varaqada mahsulotning kelib chiqishini ko'rsatish imkonini beradi va Yevropa Ittifoqi bojxona organlariga imtiyozlarni elektron shaklda taqdim etadi.

REX tizimining asosiy g'oyasi eksportchi o'z mahsulotlarini GSP+ tizimi doirasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga jo'natishda bajaradigan barcha tartiblarni sezilarli darajada soddalashtirishdan iborat. Shunday qilib, agar ilgari ishlab chiqaruvchilar eksport qilinadigan mahsulotlarning har bir partiyasi uchun mahsulotning kelib chiqishi sertifikatini olgan bo'lsa, endilikda REX tizimida bir marta ro'yxatdan o'tish orqali, siz kelib chiqish sertifikati jarayonidan butunlay ozod bo'lishingiz mumkin.

REX tizimida ro'yxatdan o'tish uchun ma'lumotlar eksportchi tomonidan "O'zbek ekspertiza" AJ yoki uning hududiy bo'linmalariga taqdim etiladi. Ro'yxatga olish eksport qiluvchi tomonidan taqdim etilgan ariza va eksport qilinadigan mahsulot kelib chiqishining Yevropa Ittifoqi qoidalariga talablariga muvofiqligi to'g'risidagi ekspert xulosasi asosida amalga oshiriladi. Xizmatlar portali orqali mahsulotning kelib chiqishi sertifikatini olish bo'yicha batafsil tavsifini Foydalanuvchilar qo'llanmasi ning 4.3.1-bo'limida topishingiz mumkin. Bosqichma-bosqich ma'lumotlarni <https://uztradeinfo.uz> sahifasi va "O'zekspertiza" AJ <https://www.expertiza.uz/uz/> sahifasidan ham topishingiz mumkin.



Ro'yxatdan o'tgan eksportchilarga yagona REX raqami beriladi va bu eksportchilar va mahsulotlarga imtiyozlar Yevropa Ittifoqi bojxona organlari tomonidan hisob-varaqada yoki yagona REX raqamini ko'rsatilgan boshqa qo'shimcha hujjatlarda mahsulot kelib chiqishi deklaratsiyasi asosida berilishi mumkin.

REX tizimida ro'yxatdan o'tish uchun vakolatli organning aloqa ma'lumotlari:



“O‘ZBEKEKSPERTIZA” AJ



Veb-sahifasi: www.expertiza.uz



Telefon: +998(71)230-24-49
(71)230-23-55



Telegram boti: [@uzbekexpertiza_bot](https://t.me/uzbekexpertiza_bot)



Shuningdek, qo'shimcha ma'lumotlarni Yevropa Ittifoqi veb-sahifasida ham topishingiz mumkin:

https://taxation-customs.ec.europa.eu/online-services/online-services-and-databases-customs/rex-registered-exporter-system_en





3

Eksportga tayyorgarlik bosqichlari

Demak, mahsulotni Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilishga tayyorgarlik ko'rish uchun ishni nimadan boshlash lozim?

1. Bozorni o'rganib chiqing
2. YI mamlakatida mahsulotingizning potensial xaridorini toping
3. Mahsulot jo'natilayotgan mamlakatda unga qanday majburiy talablar qo'yilishini, shuningdek mahsulotingiz uchun salohiyatli xaridorining qo'shimcha shart-sharoitlarini aniqlang.
4. Agar siz Yevropa Ittifoqiga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, Yevropa Ittifoqining oziq-ovqat to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalariga ham, mahsulotning ushbu turiga qo'yilgan maxsus talablarga ham rioya qilishingiz kerak.
5. Mahsulotingiz Yevropa Ittifoqining maxsus talablariga mos kelishini tekshiring.



Mahsulotingizga qanday maxsus talablar qo'llanilishini Yevropa Ittifoqining Access2Markets eksport va importni qo'llab-quvvatlash onlayn portalida bilib olishingiz mumkin.



Oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasining umumiy qoidalari:

- Ishlab chiqaruvchi oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini ta'minlash uchun javob berishini yodda tuting.
- Siz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning xom ashyo bosqichidan tortib, barcha bosqichigacha, shuningdek ishlab chiqarish, qayta ishlash va taqsimlashning barcha bosqichlarida gigiyenaning asosiy talablariga rioya etilishini kafolatlashingiz kerak.
- Mahsulotning mikrobiologik zararlantirish darajasini nazorat qilish zarur.
- Mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni HACCP – Xavflarni tahlil qilish va tanqidiy nazorat nuqtalari tamojilariga muvofiq kelishi kerak.



Zararli moddalarni nazorat qilish:

- Mahsulotingiz qaysi zararli moddalarga (mikotoksinlar, og'ir metallar, selitrage) tekshirilishi kerakligini va ularning ruxsat berilgan maksimal darajasini bilib oling.



- Laboratoriya sinovlarini o'tkazing hamda ifloslantiruvchi moddalarning mavjudligi va miqdorini ko'rsatuvchi bayonnomalarni tuzing.
- Mahsulotingiz tarkibida limitdan yuqori belgilangan ifloslantiruvchi moddalar yo'qligiga ishonch hosil qiling.



Pestitsid qoldiqlarini nazorat qilish:

- O'simliklarni himoya qilish uchun siz foydalanayotgan faol moddalar YI Pestitsidlari ma'lumotlar bazasiga kiritilganligini tekshiring.
- Mahsulotingiz tarkibida Yevropa Ittifoqida belgilangan limitlardan ortiq pestitsidlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.



Fitosanitariya nazorati:

- Mahsulotingiz Yevropa Ittifoqining fitosanitariyaga doir qonun hujjatlariga mos kelishiga va tarkibida YI hududida olib kirish taqiqlangan organizmlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- O'simliklarni karantin qilish bo'yicha davlat inspeksiyasidan fitosanitariya sertifikatini oling (kechi bilan mahsulot belgilangan mamlakatga jo'natiladigan sanadan 14 kun avval).



Bozor standartlari:

- Mahsulotingizning sifati ho'l meva va sabzavotlar uchun belgilangan YI bozor standartlariga mos kelishini tekshiring.



Oziq-ovqat mahsulotlariga belgi (markirovka) qo'yish:

- Mahsulotingiz markirovkasi YI belgi qo'yish qoidalariga muvofiq kelishiga ishonch hosil qiling.

1. Mahsulotni xarid qiluvchilar YI qonun hujjatlarida belgilangan majburiy talablarga qo'shimcha ravishda mahsulotni ishlab chiqarish jarayonlariga, uning xavfsizligi va sifatiga, qadog'iga, belgisiga va hokazolarga o'ziga xos talablar qo'yishlari mumkin. Masalan, tegishli qishloq xo'jaligi amaliyoti talablariga (Global GAP) yoki oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimi standartlariga (ISO 22000, FSSC 22000, BRC va hokazolarga) muvofiq kelishini talab qilishlari mumkin.

2. Agar siz mahsulotingiz sifat va xavfsizlik parametrlari bo'yicha Yevropa Ittifoqining majburiy talablariga, shuningdek salohiyatli xaridoringizning qo'shimcha talablariga muvofiq kelishiga ishonchingiz komil bo'lsa, siz eksport shartnomasini tuzish bo'yicha muzokaralar o'tkazishni boshlashingiz mumkin.

Qo'llanmaning keyingi bo'limlarida siz meva-sabzavot mahsulotlarini YI mamlakatlariga import qilishda qo'yiladigan maxsus talablarning batafsil ta'rifini topishingiz mumkin, shuningdek qayd etilgan talablarning qaysi birlari aynan sizning mahsulotingizga qo'yilishini bilib olasiz.

4

Sizni qiziqtirgan ma'lumotlarni qanday topish mumkin?

Ma'lumotlardan foydalanishni soddalashtirish maqsadida Yevropa Komissiyasi **Access2Markets** onlayn portalini ishga tushirdi. Ushbu onlayn portali Yevropa Ittifoqining oldingi Savdo bo'yicha yordam xizmati EU Trade Helpdesk va bozorga kirish ma'lumotlar bazasi Market Access Database ni bitta vositada birlashtiradi.

Yangi tizim ko'p funksiyali portal bo'lib, kompaniya va jismoniy shaxslarga kerakli ma'lumotlarni imkon qadar tezroq topishga yordam berishi uchun alohida mahsulotlar va mamlakatlar haqida ma'lumot qidirish imkoniyatini taklif etadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi taklif qilayotgan savdo imkoniyatlaridan to'liq xabardor bo'lmagan kichik va o'rta korxonalar uchun ham foydalidir. Ushbu veb-portal Yevropa Ittifoqidan eksport qilish yoki import qilishda bilishingiz kerak bo'lgan foydali savdo ma'lumotlarini taqdim etadi va quyidagi mavzularni o'z ichiga qamrab oladi:

- bojlar va tariflar
- mahsulotning kelib chiqish qoidalari
- mahsulotga qo'yiladigan talablar
- bojxona tartiblari
- QQS, aktsizlar va soliqlar;
- savdo bo'yicha statistik ma'lumotlar.

Veb-portal o'zining statik veb-sahifalari uchun rus tiliga internet orqali tarjimasini taklif qiladi, ammo mahsulot haqidagi asosiy ma'lumotlar faqat ingliz tilida mavjud: <https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/home>

Mahsulotlaringiz uchun import talablarini bilish uchun «Mening savdo yordamchim» – My Trade Assistant sahifasida mahsulot TIF TN kodini, mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakat va export qilinadigan mamlakat nomini quyidagi havola orqali kiriting: <https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/home>

Ma'lum bir mahsulot haqida bir necha oddiy qadamlar orqali ma'lumot oling:

1-qadam: Qidiruv mezonlarini aniqlang


- **Mahsulotingizga mos keladigan to'g'ri mahsulot kodini kiritishingiz kerak (TIF TN / HS kodlari – Uyg'unlashtirilgan tizim) deb nomlanuvchi xalqaro tasnifga asoslangan Yevropa Ittifoqi mahsulotlar ro'yxatida keltirilgan).**

- Agar mahsulot kodini bilmasangiz, bir yoki bir nechta so'zlar bilan mahsulot nomini kiritishingiz mumkin va tizim sizga kerakli kodni topishga yordam beradi,
- Uyg'unlashtirilgan tizim nomenklaturasi tuzilmasidan tanlamoqchi bo'lsangiz, maydonni bo'sh qoldirishingiz mumkin.
- **“Export mamlakati”** – mahsulot eksport qilinadigan mamlakat
- **“Belgilangan mamlakat”** – mahsulot sotiladigan davlat
- **“Jo'natuvchi mamlakat”** va **“Qabul qiluvchi mamlakat”** ni tanlash uchun ro'yxatni ko'rib chiqing va tanlash uchun mamlakat nomini bosib yoki tez qidirish uchun mamlakat nomining birinchi harflarini yozishni boshlang, so'ngra mamlakatni tanlang.

2-qadam: «Ma'lumotni topish» – „Qidiruv“ tugmasini bosish orqali qidirishni boshlang.

Agar tizim qidiruv mezonlaringizga aniq mos kelsa, „Qidiruv natijalari“ – „Search results“ ni ekraningizda ko'rsatadi va 3-qadamga o'ting.

Qidiruvni aniqlashtiring, agar aniq mos ma'lumot topilmagan bo'lsa, „Mahsulot qidirish“ – „Product search“ sarlavhasi ostida qo'shimcha ko'rsatmalar ko'rsatiladi. Mahsulot kodini topish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.



Access2Markets

Uy | To'varlar | Xabarlar | Investitsiyalar | Xarid qilish | Boshqar | Axborot qidirish | Aholi

Mening savdo yordamchim tovarlari +1054 (Kutub xizmat qidirish O'zbekiston tovarlari)

Mahsulot nomi yoki HS kodi: 0813 | Ekspori mamlakati: O'zbekiston | Belgilangan mamlakat: Germaniya | Qidiruv

Mahsulot qidirish

Qidiruv mezonlari uchun moslik HS kodi bilan aniqlandi. Iltimos, tovarlar ro'yxatining tasdiqlangan bo'limlari ko'rinishi davom eting va mahsulotlaringizni tanlang.

Ko'rib chiqish (tovarlar ro'yxati)

Tovarlar ro'yxatining to'liq ro'yxatini ko'rib chiqing

O'zbekiston	Germaniya
0001 dan 0004 gacha bo'lgan tovarlardan tanlangan mahsulotlar; ushbu bo'limning yong'irlari yoki qitilgan mahsulotlar analitiklari	00 13
Ushbu bo'limning yong'irlari yoki qitilgan mahsulotlar analitiklari	00 13 11
Ushbu bo'limning yong'irlari yoki qitilgan mahsulotlar analitiklari	00 13 12
Ushbu bo'limning yong'irlari yoki qitilgan mahsulotlar analitiklari	00 13 13
Ushbu bo'limning yong'irlari yoki qitilgan mahsulotlar analitiklari	00 13 14
Ushbu bo'limning yong'irlari yoki qitilgan mahsulotlar analitiklari	00 13 15

3-qadam: Natijalarni ko'rish

„Qidiruv natijalari“ – „Product search“ – bo'limida sizning qidiruv mezonlaringizga mos keladigan aniq natijalar ko'rsatiladi.

Chap tomondagi menyu yordamida asosiy bo'limlarga o'ting. Kattaroq bo'limlar o'ng tomonda va kichik bo'limlarga va/yoki qo'shimcha tarkibga ega bo'lishi mumkin. Agar ma'lumotlar ma'lum bir bo'lim uchun mavjud bo'lmasa, bo'lim ko'rsatilmaydi (masalan, savdo to'siqlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, «Savdo to'siqlari» chap menyuda ko'rsatilmaydi).

[illegible]

Natijalar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- nomenklatura tuzilmasi, tariflar (bu misolda quruq o'rik uchun odatiy Erga omnes boji – 5,60% va GSP+ savdo bitimi doirasida imtiyozli tarif stavkasi – 0%);
- mahsulotning kelib chiqishiga oid qoidalar, yani mahsulotning importiga qo'llaniladigan talablar (shu jumladan o'z-o'zini baholash vositasi).



Access2Markets

Uz | O'zbekiston

Mening savdo yordamchilari tovarlari + ROSA (Kelib chiqish qoidalarini O'z-o'zini baholash vositasi)

Ushbu xabarlardan savdoni foydalanib karar

Rad etish

Mahsulot nomi yoki HS kodi: 081310 Ekspor mamlakati: O'zbekiston Berilgan mamlakat: Germaniya **Qidiruv**

Eng so'nggi mahsulot qidiruvlari:

O'zbekistondan Germaniyaga 0813.10 bo'yicha qidiruv natijalari ko'rsatilmogda

Mahsulot muvaffaqiyatli aniqlandi

Evropa Ittifoqiga Import qilish

O'zbekistondan Germaniyaga 0813.10 mahsulot kodi uchun natijalar

Tariflar

Kelib chiqish qoidalarini
O'z-o'zini baholash vositasi (ROSA) kelib chiqish qoidalarini
Kelib chiqish hujjatini va to'lovlarini

Soliqlar

Import talablarini
Savdo oqimi statistikasi
Natijalarni qanday o'qish kerak

Soliqlar

so'nggi yangilash: 2025-01-20 14:00

Soliq turi	Standart stavka	Qayta ko'rib chiqish sanasi	Butaj
Aksiz solig'i (EXC)	-	-	Germaniya - E
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)	7%	-	Germaniya - E

- Mahsulotning kelib chiqishiga oid qoidalar, import qoidalar, import talablari va savdo oqimi statistikasi haqida qo'shimcha ma'lumotni veb-sahifaning chap tomonida topishingiz mumkin. Bunga misol, quritilgan o'rik uchun Germaniyadagi ichki soliqlar: aksiz solig'i – 0%, QQS stavkasi – 7%.

[illegible]



5

Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda qo'yiladigan maxsus talablar



Agar siz Yevropa Ittifoqiga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, Yevropa Ittifoqining oziq-ovqat to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy qoidalariga ham, mahsulotning ushbu turiga qo'yilgan maxsus talablarga ham rioya qilishingiz kerak. Oziq-ovqat to'g'risidagi umumiy qonuni Yevropa oziq-ovqat xavfsizligi agentligi (EFSA) tomonidan yaratilgan. EFSA oziq-ovqat xavfsizligi sohasida maxsus qonunchilikni ishlab chiqish va oziq-ovqat mahsulotlarini rasmiy nazorat qilish doirasida javobgardir.

Yevropa Ittifoqi oziq-ovqat to'g'risidagi qonun hujjatlarining umumiy talablari



Yevropa Ittifoqining oziq-ovqat to'g'risidagi qonun hujjatlarining ayrim talablari Yevropa Ittifoqiga eksport qilinayotgan barcha oziq-ovqat mahsulotlariga va ozuqalarga qo'llaniladi. Oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqa operatorlari oziq-ovqat mahsulotlari hamda ozuqa ishlab chiqarish va taqsimlashning barcha bosqichlarida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

1. Oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish (muvofiglik yoki ekvivalentlik).

2. Kuzatib tekshirish imkoniyati

3. Import qiluvchilarning javobgarligi

1. Oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish (muvofiglik yoki ekvivalentlik). Import qilinayotgan oziq-ovqat va ozuqa mahsulotlari oziq-ovqat to'g'risidagi qonun hujjatlarining tegishli talablariga yoki YI tomonidan teng qiymatli deb e'tirof etilgan shartlarga muvofiq kelishi kerak. Eksport qiluvchi mamlakatning vakolatli organi mahsulotingizning YI talablariga muvofiq kelishi yoki ularga teng ekanligi to'g'risida kafolat berishi kerak.

2. Kuzatib tekshirish imkoniyati. YI qonuni kuzatib tekshirishni oziq-ovqat mahsulotlarida foydalaniladigan istalgan oziq-ovqat mahsulotlari, ozuqa va ingreedyentlarni ishlab chiqarishning, qayta ishlashning va taqsimlashning barcha



bosqichlarida kuzatish imkoniyati sifatida belgilaydi. Garchi kuzatish qoidalari Yevropa Ittifoqidan tashqarida qo'llanmasa-da, ushbu talab mahsulotingizni Yevropa Ittifoqiga import qiluvchiga tatbiq etiladi, chunki u mahsulot ishlab chiqarilgan mamlakatdagi yetkazib beruvchini identifikatsiya qilishi va ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

Siz oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi sifatida mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri yetkazib beruvchini va qabul qiluvchini bilishingiz kerak („bir qadam orqaga – bir qadam oldinga“ tamoyili).

3. Import qiluvchilarning javobgarligi. Har qanday oziq-ovqat operatori kabi siz ham oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va taqsimlashning barcha bosqichlarida mahsulot oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga javob berishini kafolatlashingiz hamda nazoratingiz ostida bo'lgan mahsulotlar uchun ushbu talablarning bajarilishini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'lishingiz kerak.

Qonun hujjatlari

- Yevropa parlamenti va Kengashining 178/2002-sonli Reglamenti (OJ L-31 01/02/2002)(CELEX 32002R0178)

Boshqa ma'lumot manbalari

Batafsil ma'lumotlarni Yevropa Ittifoqining Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha Bosh direktorati (DG SANTE) web-sahifasida topish mumkin:

- **Oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining tamoyillari:** https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/general-food-law/food-law-general-principles_en
- **Oziq-ovqat mahsulotlarini kuzatish:** https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/general-food-law/food-law-general-requirements_en
- **Operatorlarning javobgarligi:** https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/general-food-law/food-law-general-requirements_en
- **Oziq-ovqat operatorlarining asosiy majburiyatlari to'g'risida broshurasi:** https://food.ec.europa.eu/document/download/7ac8a089-0a81-4080-8955-e5d672aa11ab_en?filename=gfl_req_business_operators_obligations_en.pdf
- **Yevropa parlamenti va Kengashi umumiy oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining 178/2002-sonli reglamentidagi 11, 12, 16, 17, 18, 19 va 20-moddalarni amalga oshirishga doir qo'llanmasi ko'rsatmalari:** https://food.ec.europa.eu/document/download/4cea21a6-ec96-49a7-a3a0-e1747c2c595d_en?filename=gfl_req_implementation-guidance_en.pdf



Hayvon xom ashyosidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish



Agar siz meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, aholi sog'lig'iga tahdid soladigan xavfning oldini olishga va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi qoidalar va talablarga rioya qilishingiz kerak:

1. Oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasining umumiy qoidalari

Yevropa Ittifoqining [852/2004-sonli Reglamentda](#) belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasi qoidalari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha bosqichida uning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari operatorlari quyidagi qoidalarga rioya qilishlari kerak:

- Oziq-ovqat mahsulotlari va jarayonlarning xavfsizligini nazorat qilish yuzasidan javob berish. Agar mahsulot ishlab chiqaruvchi YI hududidan tashqarida bo'lsa, bu majburiyat ishlab chiqaruvchining Yevropa Ittifoqidagi vakiliga yoki mahsulotni import qiluvchiga taalluqli bo'ladi.
- Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilk bosqichidan so'nggi bosqichigacha, shuningdek ishlab chiqarish, qayta ishlash va taqsimlash bosqichlarida gigiyenaning asosiy talablariga rioya etilishini kafolatlash.
- Mahsulotning mikrobiologik zararlanish darajasini nazorat qilish.
- Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari uchun mikrobiologik mezonlar Komissiyaning (YI) 2073/2005-sonli Qarorida belgilangan.
- Tartib-taomillar HACCP tamoyillariga muvofiq kelishi kerak.
- Oziq-ovqat mahsulotlari operatorlarini tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish.

2. Oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalarga taalluqli umumiy talablar

Oziq-ovqat mahsulotlariga (shu jumladan meva va sabzavotlarga) ularni ishlab chiqarish, qadoqlash, tashish yoki saqlashning turli bosqichlarida zararli moddalar tushib qolishi yoki ular atrof-muhitning ifloslanishi natijasida paydo bo'lishi mumkin. Bunday moddalar oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi uchun haqiqiy xavfni o'zida ifodalashi tufayli YI oziq-ovqat mahsulotlaridagi ayrim zararli moddalar uchun maksimal darajalarni belgilab, xavfni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rgan.

a) Oziq-ovqat mahsulotlaridagi ayrim zararli moddalarning maksimal darajasi

Ayrim oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, mevalar, sabzavotlar, yong'och, boshqli o'simliklar, meva sharbatlari va hokazolar) bozorga joylashtirilganda ularning ifloslanganlik darajasi YI komissiyasining [2023/915-sonli Reglamentida](#) ko'rsatilgan darajadan yuqori bo'lmasligi kerak.



Umuman olganda, zararli moddalarning maksimal darajalari oziq-ovqat mahsulotlarining yeyiladigan qismiga hamda murakkab oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan tarkibiy qismlarga nisbatan qo'llaniladi.

b) Oziq-ovqat mahsulotlarida batamom yo'q qilinmagan pestitsidlarning maksimal darajalari

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar agar tarkibida pestitsidlarning qoldiqlari mavjud bo'lgan ayrim mahsulotlarda bunday qoldiqlarning miqdori odamlarga nomaqbul xavf solib, ruxsat berilgan maksimal darajadan ortiq bo'lsa, ularning bozorda joylashtirilishini cheklashi mumkin. Ushbu cheklovlar ko'rib chiqilayotgan moddaning zaharililigi bog'liq.

YI qonun hujjatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi yoki uning sarxil, qayta ishlangan shaklda va/yoki tarkibida pestitsidlarning qoldiqlari bo'lishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ovqatga ishlatish uchun mo'ljallangan qismidagi pestitsidlar qoldiqlarining maksimal darajalarini belgilab beradi;

v) Oziq-ovqat mahsulotlarini radioaktiv ifloslantirishning maksimal darajalari

YI qonun hujjatlari yadro halokatidan yoki istalgan boshqa favqulodda radiologik vaziyatdan keyin bozorda joylashtirilishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining radioaktiv ifloslanishining maksimal mumkin bo'lgan darajalarini belgilab beradi;

g) Oziq-ovqat mahsulotlari o'raladigan va joylashtiriladigan idishlar hamda materiallar

Oziq-ovqat mahsulotlari qadoqlanadigan va joylashtiriladigan idishlar hamda materiallar va buyumlar o'z xususiyatlarini oziq-ovqat mahsulotlariga insonning salomatligiga xavf solmaydigan qilib, ovqat tarkibini nomaqbul yo'l bilan o'zgartirmaydigan qilib yoki oziq-ovqat mahsulotlarining ta'mi va hidini yomonlashtirmaydigan qilib tayyorlangan bo'lishi kerak.

YIning 1935/2004-sonli Reglamenti aniq chora-tadbirlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan materiallar va buyumlar (masalan, plastmassa, sopol buyumlar, rezina, qog'oz, shisha va hokazolar) guruhlar ro'yxatini, shu jumladan ma'qullangan moddalar ro'yxatini, foydalanishning o'ziga xos shartlarini, tozalik standartlari va hokazolarni belgilab beradi. Sopol buyumlar, qayta hosil qilingan selluloza va plastika uchun o'ziga xos talablar mavjud.

3. Genetik modifikatsiyalangan (GMO) oziq-ovqat mahsulotlariga va oziq-ovqat mahsulotlarining yangi turlariga (Novel food) qo'yilgan maxsus talablar

Inson salomatligining yuksak darajasini ta'minlash maqsadida YI qonun hujjatlarida tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlarga ega yoki shunday organizmlardan hosil qilingan mahsulotlarning bozorda joylashtirilishiga ruxsat berishning yagona tartib-taomili nazarda tutiladi.



Yangi mahsulotlar (masalan, ko'p jihatdan YI mamlakatlarida 1997-yil 15-mayga qadar inson iste'moli uchun foydalanilmagan oziq-ovqat mahsulotlari va ingreiyentlar) ham YI bozoriga joylashtirilishidan avval xavfsizlik nuqtai nazaridan baholanishi kerak.

4. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashning umumiy shartlari

YI qonun hujjatlari iste'molchilarning salomatligini asrash va YI bozorida oziq-ovqat mahsulotlarining erkin muomalada bo'lishini ta'minlash maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini, ozuqa ingreiyentlarini qayta ishlashga hamda ulardan foydalanish shartlariga taalluqli normalarni belgilab beradi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlari guruhlar uchun maxsus qoidalar aniq ko'rsatmalarda bayon etilgan. Tarkib bo'yicha talablar, gigiyenik talablar, qo'shimchalar ro'yxati, tozalik mezonlari, belgiga qo'yilgan aniq talablar va hokazolar shular jumlasidandir.



5. Oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish

YIning 2017/625-sonli [Reglamenti](#) Yevropa Ittifoqida oziq-ovqat mahsulotlarining rasmiy nazorat qilinishini tashkil etish uchun umumiy qoidalarni belgilab beradi.

YI a'zo davlatlarining vakolatli organlari import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining Yevropa Ittifoqining iste'molchilar sog'lig'i va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan umumiy sanitariya qoidalariga muvofiq kelishini ta'minlash uchun ular ustidan muntazam nazorat olib boradi.

Nazorat Yevropa Ittifoqiga import qilish bo'yicha va/yoki oziq-ovqat zanjirining istalgan boshqa bosqichi (ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, taqsimlash va savdo) yuzasidan amalga oshirilishi hamda hujjatlarni muntazam tekshirishni, hujjatlarga muvofiqlikni saralab tekshirishni va zarur bo'lganda fizik tekshirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Bundan tashqari, YI komissiyasining 2019/1793-sonli [Reglamenti](#) olib kirilayotgan ayrim oziq-ovqat mahsulotlari kirish punktida ma'lum yoki yangi paydo bo'lgan tahdidlar asosida kuchli rasmiy nazorat qilinishini belgilab beradi. Ushbu mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish uchun ushbu Qoidalarning nizomlariga muvofiq Umumiy kirish hujjatini (Common Entry Document – CED) taqdim etish zarur.

Batafsilroq ma'lumotni Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha Bosh direktoratining veb-sahifasidan topish mumkin (DG SANTE):

Import qilish talablari hamda oziq-ovqat gigiyenasi va ovqatlanishni rasmiy nazorat qilishning yangi qoidalari bilan bog'liq asosiy masalalar: https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/official-controls-and-enforcement/imported-products_en



Qonun hujjatlari

- Hayvon xom ashyosidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish sohasida Yevropa Ittifoqining qonun hujjatlari: [EU legislation on health control of foodstuffs of non-animal origin.](#)

Boshqa ma'lumotlar manbalari

- Import qilish talablari hamda oziq-ovqat gigiyenasi va ovqatlanishni rasmiy nazorat qilishning yangi qoidalari bilan bog'liq asosiy masalalar: https://food.ec.europa.eu/document/download/8a84896d-57fb-44a5-8d03-e490ce0633fd_en?filename=ia_ic_guidance_import-requirements.pdf
- Oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasi bo'yicha Yevropa Parlamenti va Kengashining 852/2004-sonli Reglamentidagi (YI) ayrim nizomlarni amalga oshirishga doir qo'llanmasi: https://food.ec.europa.eu/system/files/2018-10/biosafety_fh_legis_guidance_reg-2004-852_en.pdf
- HACCP prinsiplari asosida tartib-taomillarni amalga oshirishga doir qo'llanma bo'luvchi hujjat, shuningdek oziq-ovqat sanoatining ayrim korxonalarida HACCP tamoyillarining amalga oshirilishiga ko'maklashish: https://www.row-minvws.nl/site/binaries/site-content/collections/documents/2017/11/23/guidance-document-haccp/guidance_doc_haccp_en.pdf
- Oziq-ovqat mahsulotlarida ifloslantiruvchi moddalarning qoldiqlari bo'yicha savol-javoblar: https://food.ec.europa.eu/document/download/8f06f114-f116-434c-8f86-a36ed6117b28_en?filename=pesticides_mrls_qas.pdf
- Pestitsidlar qoldiqlariga doir YI qonun hujjatlariga kirish: https://food.ec.europa.eu/document/download/f5f585b7-c21c-4ebc-a0db-1e011eee3518_en?filename=pesticides_mrl_legis_factsheet_en.pdf
- Yevropa Ittifoqida genetik modifikatsiyalangan organizmlar bo'yicha savol-javoblar: https://ec.europa.eu/commission/presscorner/api/files/document/print/en/memo_04_85/MEMO_04_85_EN.pdf
- Oziq-ovqat mahsulotlari o'raladigan va joylashtiriladigan idishlar hamda materiallarga doir YI qonun hujjatlari bo'yicha savol-javoblar: <https://www.efsa.europa.eu/en/applications/foodcontactmaterials/faq>

Batafsilroq ma'lumotlarni Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha Bosh direktoratining veb-sahifasidan topish mumkin (DG SANTE)

- **Mikrobiologik mezonlar:** https://food.ec.europa.eu/food-safety/biological-safety/food-hygiene/microbiological-criteria_en



- **Oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalar:**
https://food.ec.europa.eu/food-safety/chemical-safety/contaminants_en
- **Pestitsidlar qoldiqlari:** https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides_en
- **Pestitsidlarning maksimal darajasi bo'yicha ma'lumotlar bazasi:**
https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides/maximum-residue-levels_en
- **Oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqa bo'yicha tezkor xabardor qilish tizimi portali (RASFF) Portal – online qidiruv uchun ma'lumotlar bazasi:**
https://food.ec.europa.eu/food-safety/rasff_en
- **Genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat mahsulotlari:**
https://food.ec.europa.eu/plants/genetically-modified-organisms_en
- **Yangi mahsulotlar:** https://food.ec.europa.eu/food-safety/novel-food_en
- **Ovqatga ishlatiladigan qo'shimchalar:** https://food.ec.europa.eu/food-safety/labelling-and-nutrition/food-supplements_en
- **Oziq-ovqatni xushbo'y qiladigan qo'shimchalar:**
https://food.ec.europa.eu/food-safety/food-improvement-agents/flavourings_en
- **Oziq-ovqat radiatsiyasi:**
https://food.ec.europa.eu/food-safety/biological-safety/food-irradiation_en
- **Maxsus oziq-ovqat maqsadlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari:**
https://food.ec.europa.eu/food-safety/labelling-and-nutrition/specific-groups_en
- **Oziq-ovqat mahsulotlari o'raladigan va joylashtiriladigan idishlar hamda materiallar:** https://food.ec.europa.eu/food-safety/chemical-safety/food-contact-materials_en

Oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalarni nazorat qilish



Agar siz Yevropa Ittifoqiga oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, ularning tarkibida inson salomatligiga xavf soladigan darajada zararli moddalar yo'qligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Shu sababli mahsulotingizga YI chegarasiga yetib kelishi bilan zararli moddalarning mavjudligini va miqdorini ko'rsatuvchi laboratoriya tekshiruvlari bayonnomalariga ega hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Iste'molchilar huquqlari yuksak darajada himoya qilinishini ta'minlash maqsadida Yevropa Ittifoqiga (YI) oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish YI qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi kerak. YI qonun hujjatlari YI bozorlariga joylashtirilayotgan mahsulotlar ovqatga qo'shib iste'mol qilish nuqtai nazaridan xavfsiz bo'lishini va tarkibida inson salomatligi uchun xavf solishi mumkin bo'lgan darajalarda zararli moddalar bo'lmasligini ta'minlashga qaratilgan.



YI qonun hujjatlari muayyan oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarga nisbatan maksimal darajalarni belgilaydi. YI bozoriga joylashtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida YI Reglamentiga ilova qilingan 2023/915-sonli llovaning turli bo'limlarida ko'rsatilgandan yuqori darajada zararli moddalar bo'lmashligi kerak.

Shu jumladan, meva-sabzavot mahsulotlaridagi quyidagi zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalariga limitlar o'rnatilmoqda:

Bo'lim	Ifloslantiruvchi	Mahsulot
1.	Selitra	salat, ismaloq, bolalar ovqatlari
2.	Mikotoksinlar	yer yong'oq, yong'oq, quruq mevalar, meva sharbatlari, ziravorlar, olmadan tayyorlangan mahsulotlar, parhez taomlar va bolalar ovqatlari
	▪ aflotoksin	quruq mevalar
	▪ oxratoksin	qurutilgan uzum, uzum sharbati
	▪ patulin	meva sharbatlari, olmadan tayyorlangan mahsulotlar
3.	Og'ir metallar	meva va sabzavotlar
	▪ qo'rg'oshin	sabzavotlar, mevalar va reza mevalar, meva sharbatlari
	▪ kadmiy	sabzavotlar
	▪ qalay	konservalangan ichimliklar, shu jumladan meva va sabzavot sharbatlari



Mahsulotingiz qanday zararli moddalarga tekshirilishini va ularning ruxsat etilgan maksimal darajalarini 3-ilovadan bilish mumkin.



Qonun hujjatlari

- Oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalar uchun Hamjamiyatning tartib-taomillarini belgilab beruvchi Kengashning (YIH) 1993-yil 8-fevralda qabul qilingan 315/93-sonli Reglamenti (OJ L-37, 13/02/1993) (CELEX 31993R0315).
- Oziq-ovqat mahsulotlaridagi ayrim zararli moddalar uchun maksimal darajalarni belgilab beruvchi 2006-yil 19-dekabrda qabul qilingan 2023/915-sonli Reglament (EI) OJ L-119 05/05/2023) (CELEX 32023R0915).



Ma'lumot manbalari

- Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha Bosh direktorati – Oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalarga doir byulleten: https://food.ec.europa.eu/document/download/a9e098eb-5074-4246-a338-96053ed0caa4_en?filename=cs_contaminants_factsheet_en.pdf



- Rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilishga ko'maklashish markazi (CBI): <https://www.cbi.eu/market-information>
- Yevropa oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi boshqarmasi (EFSA): <http://www.efsa.europa.eu>

Inson iste'moli uchun mo'ljallangan o'simliklardagi va hayvon xom ashyosidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlar qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish

Iste'molchilar huquqlarining yuksak darajada himoya qilinishini ta'minlash maqsadida inson iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan, tarkibida pestitsidlar qoldiqlari mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan o'simliklar va hayvonlar go'shtidan tayyorlangan mahsulotlarni YI qonun hujjatlarida belgilangan kafolatlarga rioya qilinganda import qilishga ruxsat beriladi.



Yevropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasi

Agar siz Yevropa Ittifoqiga o'simlikdan tayyorlangan mahsulotni eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, o'simliklarni himoya qilish uchun ishlatilayotgan faol moddalar Yevropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasiga kiritilgan bo'lishi kerak.

Yevropa Ittifoqining ma'qullangan ro'yxatiga kiritilgan faol moddalardangina ([positive EU list](#)) o'simliklarni himoya qilish vositalarida foydalanish mumkin. Bunday moddalar Yevropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasida ([EU Pesticide Database](#)) ko'rsatilgan. Modda ro'yxatga kiritilgandan keyin Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar tarkibida ushbu modda mavjud bo'lgan mahsulotlardan foydalanishga ruxsat berishi mumkin.

Yevropa Ittifoqida pestitsidlar qoldiqlarini nazorat qilish: pestitsidlar qoldiqlarining ruxsat etilgan maksimal darajalari (**MRLs**)

YI qonun hujjatlari pestitsidlar qoldiqlarini nazorat qilish qoidalarini hamda oziq-ovqat mahsulotlari va oзуqadagi pestitsidlar qoldiqlarining Yevropa Ittifoqida ruxsat etilgan maksimal darajalarini (MRLs) belgilab beradi.



YI chegarasiga yetib kelguningizga qadar siz mahsulotingiz tarkibida belgilangan limitdan ortiq pestitsidlar mavjud emasligiga ishonch hosil qilishingiz kerak.

Nazorat qilinishi lozim bo'lgan tovarlar ro'yxati va pestitsidlar qoldiqlarining maksimal darajalari (MRLs) 396/2005-sonli Reglamentga (YI) ilovalarda ko'rsatilgan:



I ILOVA	MRLs qo'llaniladigan mahsulotlar, shu jumladan hayvonlar go'shtidan tayyorlangan mahsulotlar, mevalar, savzavotlar, boshqoqli o'simliklar, ziravorlar va ayrim yesa bo'ladigan o'simliklar ro'yxati
II ILOVA	Yevropa Ittifoqida qoldiqlarning maksimal darajasi belgilangan pestitsidlar ro'yxati (MRLs)
III ILOVA	Vaqtinchalik MRLs ro'yxati. YI (2008-yil 1– sentyabrgacha MRLs milliy darajada belgilangan pestitsidlar)
IV ILOVA	Xavf solishi pastligi tufayli MRLs ni aniqlash zarur bo'lmagan pestitsidlar ro'yxati
V ILOVA	0,01 mg/kg dan farqli avtomatik tarzda limit qo'llaniladigan pestitsidlar ro'yxati
VI ILOVA	Qayta ishlangan mahsulotlar uchun MRLs qayta hisob-kitob qilish koeffitsiyentlari ro'yxati
VII ILOVA	Fumigantlar sifatida foydalaniladigan pestitsidlar ro'yxati. A'zo davlatlar tovarlar bozorga joylashtirilguniga qadar bunday pestitsidlar yuzasidan maxsus qoidalarni qo'llashga haqli

Mahsulotning aniq turlari bo'yicha ilovalar ro'yxatiga kiritilgan moddalar va MRLs to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni Yevropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasidan (EU Pesticide Database) olish mumkin:

■ https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides/eu-pesticides-database_en

Evropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasi foydalanuvchilarga o'simliklarni himoya qilish vositalarida qo'llaniladigan fast moddalar, oziq-ovqat mahsulotlaridagi maksimal qoldiq darajasi (MRLs) va a'zo davlatlarda o'simliklarni himoya qilish vositalarining foydalanish qoidalari haqida ma'lumot qidirish imkonini beradi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarni topish uchun quyidagi qismlar orqali foydalanishlari mumkin:

- Fast moddalar**
Ma'lumotlar bazasida fast moddalar (shu jumladan, pest xavfi yoki ahamiyatiga nomzodlar) va 8-ta tasdiqlangan yoki tasdiqlanmagan asosiy moddalar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Bu pest xavfi vositalar va siniflar ham o'z ichiga olgan, ammo ular hatto 8-ta darajada tasdiqlanmagan. [Bu yerdagi fast moddalar bilan bog'liq so'nggi yangilashlarni topishingiz mumkin.](#)
- Oziq-ovqat mahsulotlari**
Foydalanuvchilar ma'lum bir oziq-ovqat mahsulotini (mashina, apelsin) qidirishlari va ushbu mahsulotga tegishli barcha pestitsid qoldiqlari uchun MRLlarni olishlari mumkin.
- Pestitsid qoldiqlari**
Foydalanuvchilar ma'lum bir oziq-ovqat mahsulotidagi bunday qoldiqlar uchun qo'llaniladigan MRLlar foydalanuvchilar muayyan oziq-ovqat mahsulotlarida ma'lum bir pestitsid qoldiqlarini tasvirlashi va qonuniy ravishda qo'llaniladigan joriy yoki kelajak MRLlarni topishlari mumkin. Foydalanuvchilar MRLlar ma'lumotlari ham yuklati olishlari mumkin. MRL bilan bog'liq so'nggi yangilashlarni topishingiz mumkin.

Nazorat va inspeksiya. Yilga a'zo davlatlari ma'murlari oziq-ovqat mahsulotlaridagi pestitsidlar qoldiqlarini (MRLs) nazorat qilish va ularga rioya



etilishini ta'minlash uchun javob beradi. Pestitsidlar qoldiqlarini boshqarish muvofiqlashtirilgan dasturga muvofiq milliy referens-laboratoriyalar Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda pestitsidlar qoldiqlarini aniqlash uchun mahsulot namunalarini qabul qiladi va tahlil qiladi.

Bundan tashqari, nazorat YI chegarasida amalga oshirilishi ham mumkin.

Qonun hujjatlari

- Ylga a'zo davlatlar tomonidan o'simliklarni himoya qilish vositalarini avtorizatsiyadan o'tkazish qoidolari va tartib-taomillarini hamda ulardagi faol moddalarning miqdorini belgilab beruvchi Yevropa parlamenti va Kengashining 1107/2009-sonli Reglamenti (YI) (OJ L-309 24/11/2009) ([CELEX 32009R1107](#)).
- Oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqadagi pestitsidlar qoldiqlarining Yevropa Ittifoqida ruxsat etilgan maksimal darajalarini belgilab beruvchi (MRLs) 396/2005-sonli Reglament (YI) ([CELEX 32005R0396](#)).
- O'simlikdan va hayvonlar go'shtidan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlaridagi qoldiqlarni nazorat qilish dasturini belgilab beruvchi Komissiyaning 788/2012-sonli Reglamenti (YI) 2023/731 (OJ L-95 03/04/2023) ([CELEX 32023R0731](#)).

Ma'lumot manbalari

- Pestitsidlar qoldiqlari bo'yicha referent-laboratoriyalar jamiyati:
<http://www.crl-pesticides.eu>
- Oziq-ovqat va veterinariya bo'yicha idora (FVO):
https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/official-controls-and-enforcement/health-and-food-audits-and-analysis_en
- „Oziq-ovqat mahsulotlari va urug'lardagi pestitsidlar qoldiqlarini tahlil qilish uchun sifatni tasdiqlash hamda nazorat qilish tartib-taomillari“:
https://food.ec.europa.eu/system/files/2023-11/pesticides_mrl_guidelines_wrkdoc_2021-11312.pdf

Fitosanitariya nazorati



Agar siz Yevropa Ittifoqiga o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarni (shu jumladan meva sabzavotlarni) eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, mahsulotingiz Yevropa Ittifoqining fitosanitariyaga doir qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishiga ishonch hosil qilish zarur.



YI hududida o'simliklarga va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarga zarar yetkazuvchi organizmlar olib kirilishi va tarqatilishining oldini olish fitosanitariya chora-tadbirlarining bosh maqsadidir. Asosiy talablar:

- ayrim ushbu organizmlarni YI hududiga olib kirish taqiqlanganligini nazarda tutadi, bundan ayrim holatlar mustasno;
- ushbu o'simliklar yoki o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarga fitosanitariya sertifikatini ilova qilingan bo'lishi kerak.

Umumiy talablar

Yevropa Ittifoqiga olib kirilayotgan o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarga:

- eksport qilayotgan mamlakatning malakali organi tomonidan berilgan **fitosanitariya sertifikatini** ilova qilinishi;
- YI hududiga kirish punktida **bojxona tekshiruvidan** o'tkazilishi;
- Yevropa Ittifoqiga import qilayotgan a'zo davlatda **rasman ro'yxatdan o'tkazilib** import qilinishi;
- chegaradan o'tiladigan joyga **yetib kelishidan avval** bojxona organlariga **xabar qilinishi kerak**.

Agar uchinchi mamlakatlardan yetkazib berilayotgan o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar YI hududida xavf uyg'otsa, a'zo davlatlar yoki Yevropa komissiyasi vaqtinchalik shoshilinch chora-tadbirlarni ko'rishi mumkin.



Qonun hujjatlari

Yevropa Ittifoqi qonunchiligi 2000/29/EC direktivasi (Fitosanitariya direktivasi) o'simliklar va o'simlik mahsulotlari uchun zararli organizmlarni Yevropa Ittifoqiga olib kirish yoki tarqalishini taqiqlovchi talablarni belgilaydi. 2000/29/EC fitosanitariya direktivasi quyidagi mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi:

- **O'simliklar:** tirik o'simliklar va o'simliklarning muayyan tirik qismlari, shu jumladan urug'lar. Quyidagilar ushbu toifaga kiradi:
 - mevalar, past haroratda muzlatilgan mevalardan tashqari;
 - sabzavotlar, past haroratda muzlatilgan sabzavotlardan tashqari;
 - ildizmevali o'simliklar, tugunakpiyozlar, piyoz va ildizpoyalar;
 - uzilgan gullar;
 - bargli butoqlar;
 - barglari saqlangan kesib olingan daraxtlar;
 - barglar;
 - hujayra to'qimali o'simliklar;



- tirik gulchangi;
- kurtakli daraxtlar, daraxt chiqindilari va novdalari.

- **O'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar.** Qayta ishlanmagan yoki oddiy qayta ishlangan va endilikda o'simlik hisoblanmagan mahsulotlar.

Fitosanitariya sertifikatini va/yoki qayta eksport qilish uchun fitosanitariya sertifikatini

Agar siz Yevropa Ittifoqiga yuqorida sanab o'tilgan o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, ularga rasmiy «fitosanitariya sertifikatini» yoki «qayta eksport qilish uchun fitosanitariya sertifikatini» ilova qilishingiz kerak (agar yuk mamlakatdan jo'natilgandan keyin Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan boshqa mamlakatda saqlangan bo'lsa, qayta qadoqlangan bo'lsa yoki taqsimlangan bo'lsa).

Ushbu hujjatlar o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarning fitosanitariya holatini, shuningdek yuk rasman tekshirilganligini, Yevropa Ittifoqiga olib kirish uchun belgilangan talablarga muvofiq kelishini hamda karantin zararkunandalar va boshqa zararli organizmlardan xoli ekanligini tasdiqlaydi.

Sertifikatlar YI rasmiy tillarining hech bo'lmasa birida berilgan bo'lishi kerak. Sertifikatlar hujjatda ko'rsatilgan o'simliklar, o'simlik mahsulotlari yoki boshqa obyektlar mamlakatni tark etadigan sanadan ko'pi bilan 14 kun oldin eksport qilayotgan yoki qayta eksport qilayotgan mamlakatning vakolatli organla— ri tomonidan berilishi kerak.

Fitosanitariya sertifikatini o'simliklarni himoya qilishga doir konvensiya qoidalariga muvofiq hamda FAO Xalqaro standartining 12-sonli fitosanitariya chora-tadbirlariga doir fitosanitariya sertifikatlari bo'yicha qo'llanmani inobatga olgan holda beriladi.



O'simliklar sog'lomligini bojxonada tekshirish va nazorat qilish. Siz o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarni Yevropa Ittifoqiga faqat avtorizatsiyadan o'tkazilgan o'tkazish punktlari orqali eksport qilishingiz mumkin. Mazkur o'tkazish punktlarida o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar Yevropa Ittifoqiga keltirilgan

vaqtdan boshlab rasmiy mas'ul organlar tomonidan bojxonada tekshirilishi va nazorat qilinishi lozim.

Bundan tashqari, import qiluvchi yoki uning vakili yuk keltirilganligi haqida avvaldan xabardor qilishi va inspeksiya so'rov yuborishi kerak. Bojxonada rasmiylashtirish inspeksiyaning ijobiy natijasidan keyingina o'tkazilishi mumkin.

Inspeksiya:

- zarur sertifikatlar, hujjatlar yoki belgilar berilganligini va qo'yilgan talablarni qondirishini ko'rsatuvchi hujjatlarni tekshirishni;



- o'simliklar, o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar yoki boshqa obyektlar so'ralayotgan hujjatlarda bildirilgan mahsulotlarga muvofiq kelishini ko'rsatuvchi aynan o'xshashlikni;
- o'simliklar, o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar yoki boshqa obyektlar, shu jumladan o'rash materiallarida ishlatilgan taxta, agar bunday taxtalar mavjud bo'lsa, YI Kengashining 2000/29-sonli Direktivasida ko'rsatilgan aniq talablar va fitosanitariya chora-tadbirlariga muvofiq bo'lishini hamda Yevropa Ittifoqiga import qilinishi mumkinligini belgilab beruvchi o'simliklarning sog'lomligini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Tekshiruv Yevropa Ittifoqiga a'zo tegishli davlatning chegara postiga kirib kelgan vaqtda o'tkazilishi kerak. Shunga qaramay, o'simliklarning aynan o'xshashligini va sog'lomligini tekshirish har bir aniq holatda aniqlanadigan o'simliklar va o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlarni tashishga taalluqli aniq kafolat va hujjatlardan qoniqish hosil qilingan taqdirda tayinlangan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Import qiluvchilar reyestri. O'simliklar, o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar yoki yuqorida ko'rsatilgan boshqa obyektlarni import qiluvchilar ishlab chiqaruvchi bo'lishlaridan qat'i nazar Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning rasmiy reyestriga kiritilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik haqidagi rasmiy raqamga ega bo'lishi kerak.

Import qilish to'g'risida avvaldan bildirish. A'zo davlatlar aeroport va portlar rahbariyatidan, import qiluvchilar va operatorlardan ular o'simliklar, o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar va boshqa obyektlar ortilgan yuk kelayotganligi haqida ma'lumot olishi bilan bu haqda kirish punktidagi bojxona organining va kirish punktidagi rasmiy organning avvaldan ogohlantirilishini talab qilishi mumkin.

Bundan tashqari, o'simliklar, o'simliklardan tayyorlangan mahsulotlar va zararli organizmlarni saqlay oladigan istalgan boshqa material favqulodda chora-tadbirlar predmeti bo'lishi mumkin.

Qonun hujjatlari

- Yevropa Ittifoqining o'simliklar sog'lomligini nazorat qilishga doir qonuni: <http://data.europa.eu/eli/reg/2016/2031/2025-01-05> va Oziq-ovqat va ozuqa qonunlari, hayvonlar salomatligi va farovonligi, o'simliklar salomatligi va o'simliklarni himoya qilish vositalari to'g'risidagi qoidalar qo'llanilishini ta'minlash uchun rasmiy nazorat va boshqa rasmiy tadbirlar to'g'risida Yevropa Parlamenti va Kengashning 2017-yil 15-martdagi 2017/625-sonli Nizomi: <http://data.europa.eu/eli/reg/2017/625/2025-01-05>



Boshqa ma'lumot manbalari

- Yevropa Komissiyasining Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha Bosh direktorati (DG SANTE):
https://food.ec.europa.eu/horizontal-topics/international-affairs/eu-entry-conditions/sanitary-and-phytosanitary-agreements_en
- Mahsulotning ayrim turlarini import qilish bo'yicha favqulodda chora- tadbirlar va nazorat qilishning uzoq muddatli chora-tadbirlari: https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/plant-health-rules_en
- Yevropa Ittifoqining fitosanitariya sertifikatlarining qo'shimcha deklaratsiyasi to'g'risidagi talablariga doir qo'llanma:
https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/trade-plants-plant-products-non-eu-countries/declarations-non-eu_en
- Yevropa Ittifoqining taxtdan yasalgan o'rash materiallariga doir qoidalar sharhi:
https://food.ec.europa.eu/document/download/f6e35dab-8ce1-418b-b516-85f259bc4b3e_en?filename=ph_biosec_trade-non-eu_factsheet_wp_en.pdf
- EUROPHYT - Yevropa Ittifoqining o'simliklar sog'lomligini himoya qilishga doir xabar qiluvchi tizimi:
https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/europhyt_en

Sarxil meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari



Agar siz sarxil meva va sabzavotlarni eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, ular sifat jihatidan Yevropa Ittifoqining bozor standartlariga javob berishi kerak.

Bozor standartlari mahsulotning sarxil, toza, to'g'ri yorliq qo'yilgan (markirovkalangan), sifatli va ko'rsatilgan navga mos kelishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Aksariyat mahsulotlar Yevropa Ittifoqining Umumiy bozor standartlariga muvofiq bo'lishi kerak, ular quyidagilarni belgilaydi:

- **Sifatga qo'yiladigan minimal talablar** – standartlar mahsulotning kutilayotgan sifat darajasiga mos kelishini ta'minlash uchun mahsulotning tashqi ko'rinishi, ta'mi, hidi, tuzilishi va boshqa parametrlari kabi aniq xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu talablar mahsulotlarning xavfsiz, ishonchli va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli ekanligini kafolatlaydi;
- **Pishib yetilganligi bo'yicha minimal talablar** – sarxil meva va sabzavotlar kabi mahsulotlarning muayyan turlari uchun ularning iste'mol xususiyatlarini



ta'minlashdagi standartlar pishib yetilganlikning minimal darajasini belgilaydi. Bu mahsulot bozorga chiqarilgunga qadar yetilishishning kerakli darajasiga borganligini ta'minlaydi. Misol uchun, uzumlardagi Brix (shakar miqdori ko'rsatkichi) ma'lum bir darajaga mos kelishi kerak;

- **Tolerantlik** (ruxsat etilgan og'ishlar) – standartlar belgilangan qiymatlar (parametrlar)dan kichik og'ishlarga ruxsat beradi, masalan, mahsulotning hajmi yoki shaklida, lekin bu og'ishlar sifat yoki xavfsizlikka ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

- **Mahsulot yorlig'i** – to'g'ri yorliq qo'yish iste'molchilarga mahsulot haqida zarur ma'lumotlarni, jumladan uning tarkibi, yaroqlilik muddati, saqlash shartlari va ishlab chiqaruvchisi haqidagi ma'lumotlarni olishiga yordam beradi. Yorliqlash mahsulotning muayyan standartlar va sertifikatlarga muvofiqligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Quyidagi meva va sabzavotlar uchun Maxsus bozor standartlari ishlab chiqilgan:

- **Mevalar:** olma, sitrus mevalari, kivi, shaftoli va nektarinlar, nok, qulupnay, uzum;
- **Sabzavotlar:** salat-latuk, endivi salat bargi, shirin qalampir, pomidor.

Yevropa Ittifoqiga import uchun mahsulot Umumiy yoki Maxsus bozor standartlariga muvofiq bo'lishi kerak. Mahsulotingiz toza, chirimagan, kasallik va hasharotlar bilan zararlanmagan va pishib yetilishning muayyan bosqichiga mos kelishi kerak. Shuningdek, mahsulotga tegishli yorliq qo'yilgan bo'lishi, jumladan, ishlab chiqarilgan mamlakat, navi, hajmi, og'irligi, sifati va qadog'i to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan bo'lishi kerak.

Bozor standartlari qo'llaniladigan mahsulotning qadog'ida, transport hujjatida, hisob-fakturalarida va xarid buyurtmanomalarida uning navi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

2025-yil 1-yanvardan boshlab meva-sabzavotlarga nisbatan bozor standartlarining yangi soddalashtirilgan qoidalari qo'llanilmoqda. Ushu o'zgarishlar, xususan, iste'molchilar xabardorligini yaxshilash, oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) standartlariga moslashish bilan bog'liqdir. Yevropa Ittifoqining **2023/2429-sonli** Reglamenti "Umumiy bozorni tashkil etish"ning 1308/2013-sonli Reglamentini meva-sabzavotlar sektorining ayrim qayta ishlangan meva-sabzavotlar, shu jumladan quruq mevalar uchun "bozor standartlari"ga taalluqli qismiga integratsiya qiladi.

Ushbu reglament kuchga kirishi bilan quritilgan uzum uchun minimal sifat mezonlarini belgilovchi Yevropa Ittifoqining 1666/1999-sonli Reglamenti bekor qilindi.

O'zgarishlarning qisqacha mazmuni:

- **"Iste'molchilar uchun yanada samarali ma'lumotlar":** Yangi reglament quritilgan mevalar, yong'oq va yarim tayyor mahsulotlar kabi ilgari bozor standartlaridan ozod qilingan mahsulotlar uchun kelib chiqish mamlakat yorlig'ini talab qiladi. Bu, xususan, quyidagi mahsulotlarga taalluqlidir:



- TIF TIF TN kodlari 0801dan 0806gacha bo'lgan toifadagi mahsulotlardan tashqari quritilgan mevalar; quritilgan mevalar yoki yong'oq aralashmalari, faqat 0801, 0802 mahsulot toifalarining 0813 50 31 va 0813 50 39 kichik toifasidagi yong'oqlardan iborat aralashmalari bundan mustasno;
 - quritilgan anjir (0804 20 90);
 - quritilgan uzum (0806 20).
- «Oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish»: Agar chakana savdoda iste'molchilarning shaxsiy iste'moli va ularni qayta ishlash uchun sotiladigan meva-sabzavotlarda „qayta ishlash uchun mo'ljallangan“ belgi-ko'rsatmasi yoki Yevropa Ittifoqining bozor standartlariga muvofiq bo'lishi shart bo'lmagan o'xshash ko'rsatmasi mavjud bo'lsa, yoriqlashdan ozod qilish tatbiq etiladi.

Batafsil ma'lumotni Yevropa Ittifoqi qonunchiligi EUR-Lex va «O'zbekspertiza» AJ veb-sahifasidan olish mumkin <https://www.expertiza.uz/upload/iblock/844/lidb55kpc3h2t79mOmbmo7ogjwlsnny.pdf>

Nazorat tartib-taomillari. Sizning import qiluvchingiz yoki uning rasmiy vakili Yevropa Ittifoqining nazorat organlariga tovaringiz to'g'risida ma'lumotni (import qiluvchining, ishlab chiqarilgan mamlakatning identifikatsiyasi, mahsulot ta'rifi, og'irligi, navi va hokazolar) hamda bozor standartlariga muvofiq kelishini tasdiqlovchi hujjat yoki sertifikatni taqdim etishi kerak.

Yevropa Ittifoqida bozor standartlari inspeksiyasi. Yevropa Ittifoqiga yetib kelganda YI a'zo davlatlari tomonidan tayinlangan inspeksiya organlari meva va sabzavotlarning YI bozor standartlariga muvofiq kelishini saralab tekshiradi. Inspeksiya import qilinayotgan mahsulotning YI bozor standartlariga muvofiq kelishini aniqlash maqsadida uning hujjatlarini tekshirishdan va/yoki uni nazorat qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Muvofiq kelishini tekshirish yakunlangandan keyin YI a'zo davlatlari tomonidan tayinlangan inspeksiya organlari muvofiqlik sertifikatini tayyorlashi kerak. Ushbu sertifikat mahsulotni erkin muomalaga chiqarish uchun bojxona organlariga taqdim etilishi kerak.

Muvofiqlik sertifikati YI Maxsus bozor standartlari obyekti bo'lgan mahsulot turlariga talab etiladi.

Odatda, muvofiqlik sertifikati YI Umumiy bozor standartlari obyekti bo'lgan mahsulot uchun talab etilmaydi, biroq YI bozor standartiga muvofiq kelishni saralab tekshirish olib kirish punktida o'tkazilishi kerak.

Agar tovar ushbu standartlarga muvofiq kelmasa, tekshiruvchi organ nomuvofiqlik aniqlanganligi to'g'risida hujjat tayyorlaydi. Ushbu hujjat mahsulotning ruxsatsiz o'tkazilishiga to'sinlik qiladi.



Qayta ishlashga mo'ljallangan mahsulotlar. Qayta ishlashga mo'ljallangan import qilinayotgan mahsulotlarning YI bozor standartlariga muvofiq kelishi tekshirilmaydi. Shunga qaramay, qayta ishlashga mo'ljallangan mahsulotlarning o'rami „qayta ishlashga mo'ljallangan“ deyilgan yozuv yoki boshqa shunga o'xshash boshqa ta'rif bilan aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Qonun hujjatlar

- YI Kengashining 2013 yil 17 dekabrda qabul qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining umumiy tarzda tashkil etilishini belgilab beradigan 1308/2013-sonli Reglamenti (OJ L-347 20/12/2013) ([CELEX 32013R1308](#)).
- Meva va sabzavotlarga hamda qayta ishlangan meva va sabzavotlarga nisbatan YI Kengashining 1308/2013-sonli Reglamentini qo'llashning batafsil qoidalarini belgilab beradigan YI Komissiyasining 2023 yil 17 avgustda qabul qilingan 2023/2429-sonli Ijro etuvchi Reglamenti (OJ L-2023/2429 3/11/2023) ([CELEX 32023R2429](#))

Boshqa ma'lumot manbalari

- Yevropa komissiyasining qishloq xo'jaligi va qishloq tumanlarini rivojlantirishga doir Bosh direktorati: http://ec.europa.eu/agriculture/fruit-and-vegetables/marketing-standards/index_en.htm

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish



Agar siz Yevropa Ittifoqiga oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, mahsulotingizga qo'yilgan belgi Yevropa Ittifoqining belgiga doir qoidalariga muvofiq kelishiga ishonch hosil qiling.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sotiladigan barcha oziq-ovqat mahsulotlari Yevropa Ittifoqining belgi qo'yishga doir qoidalariga muvofiq kelishi kerak. Ushbu qoidalar iste'molchilar oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilayotganda ongli tanlov uchun zarur barcha ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlariga belgi qo'yishga doir quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

- Oziq-ovqat mahsulotlariga belgi qo'yishning umumiy qoidalar.
- Mahsulotning muayyan guruhlar uchun belgilangan maxsus qoidalar:
 - genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat mahsulotlari va yangi mahsulotlarga belgi qo'yish;



- oziq-ovqat mahsulotlariga ularni tayyorlash bo'yicha o'ziga xos maqsadlarni ko'zlab belgi qo'yish;
- ovqatga solinadigan qo'shimchalar va xushbo'y hid beruvchi qo'shimchalarga belgi qo'yish;
- oziq-ovqat mahsulotlari o'raladigan va joylashtiriladigan idishlar hamda materiallarga belgi qo'yish;
- oziq-ovqat mahsulotlarining muayyan turlariga belgi qo'yish.

Oziq-ovqat mahsulotlariga belgi qo'yishning umumiy qoidalari. Oziq-ovqat mahsulotlari etiketkalari YI Kengashining [1169/2011-sonli](#) Direktivasida belgilangan umumiy qoidalarga muvofiq quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak:

- Sotilayotgan mahsulot nomi. Savdo rusumidan yoki brend nomidan foydalanish mumkin, biroq belgi mahsulotning umumiy nomiga ega bo'lishi shart.
- «Ingrediyentlar» so'zi bilan belgilangan Ingrediyentlar ro'yxatida barcha ingrediyentlar ularning vazni kamayib borishiga qarab va maxsus o'z nomlari bilan belgilanib ko'rsatilishi kerak.
- Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sof og'irligi miqdori suyuqliklar uchun (litr, santilitr, millilitrda) va suyuqlik bo'lmagan mahsulotlar uchun (kilogramm, gramm) metr birliklarda ko'rsatilishi kerak.
- Yaroqlilik muddati kun, oy va yil formatida bo'lishi hamda tez buziladigan mahsulotlar uchun «gacha yaroqli» yoki «gacha foydalanilsin» jumalari yozilishi kerak.
- Saqlash yoki foydalanish uchun o'ziga xos shartlar.
- Nomi va firma nomi hamda Yevropa Ittifoqida ta'sis etilgan tayyorlovchining, o'ramlovchining yoki import qiluvchining manzili.
- Ishlab chiqarilgan joyi.
- Foydalanish bo'yicha qo'llanma, zarur bo'lganda.
- Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari uchun turkum belgisi (seriyasi, loti). Belgidan oldin «L» harfi qo'yiladi.

Ushbu ma'lumotlar qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining o'ramida yoki unga yopishtirilgan etiketkada ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Jamoat ovqatlanishi uchun mo'ljallangan o'ramlangan oziq-ovqat mahsulotlarida (katta hajmda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarida) albatta belgi qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tijorat hujjatlarida, sotilayotgan mahsulotning nomi, saqlash muddati yoki yaroqlilik muddati, ishlab chiqaruvchining nomi esa tashqi o'ramda ko'rsatilishi kerak.

Belgi oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyatlari va xossalari yuzasidan yolg'on ma'lumot bermasligi hamda kasalliklarning oldini olishi va ularni davolashi haqidagi ta'rif keltirmasligi



kerak. Etiketkalarda berilgan ma'lumot oson tushunilishi, yaqqol ko'rinib turishi, aniq va o'chib ketmaydigan qilib hamda tovar sotilayotgan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning rasmiy tilida (tillarida) yozilgan bo'lishi kerak. Shunga qaramay, xaridorlar oson tushunib oladigan xorijiy atamalardan yoki iboralardan foydalanish mumkin.

Ushbu majburiy talablarga qo'shimcha ravishda ishlab chiqaruvchi ixtiyoriy ravishda mahsulot to'g'risida qo'shimcha ma'lumotni, agar u ishonchli bo'lsa va iste'molchilarni chalg'itmasa, kiritishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlari o'raladigan va joylashtiriladigan idishlar hamda materiallarga belgi qo'yish. Yevropa Ittifoqining 1935/2004-sonli Reglamentiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari o'raladigan va joylashtiriladigan idishlar hamda buyumlar, shu jumladan o'ramlash materiallari va konteynerlarga «oziq-ovqat mahsulotlariga mo'ljallangan» deb yozib qo'yilishi yoki stakan va sanchqi ramziga ega bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarining muayyan turlariga belgi qo'yish. Ayrim oziq-ovqat mahsulotlariga, shu jumladan quyidagi oziq-ovqat mahsulotlariga belgi qo'yish bo'yicha YI maxsus qonun hujjatlarida belgilangan qo'shimcha talablar mavjud:

- Meva sharbatlari va ayrim shunga o'xshash mahsulotlar ([Fruit juices and certain similar products](#)).
- Mevadan tayyorlangan murabbolar, jele, marmeladlar va shirin qizg'ish pyure ([Fruit jams, jellies and marmalades and sweetened chestnut purée](#)).
- Yangi mahsulotlar va ozuqa ingrediylarining yangi turlari ([Novel foods and novel foods ingredients](#)).
- Tezda muzlatilgan mahsulotlar ([Quick frozen foodstuffs](#)).

Ma'lumot manbalari

- Oziq-ovqat mahsulotlariga belgi qo'yish haqidagi batafsil ma'lumotlarni Yevropa Komissiyasining Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha Bosh direktorati (DG SANTE) veb-sahifasidan topishingiz mumkin (DG SANTE): https://commission.europa.eu/about/departments-and-executive-agencies/health-and-food-safety_en
- YI qonun hujjatlarini umumlashtiradigan foydalanish uchun qulay bo'lgan byulletenlar YI qonun hujjatlarini umumlashtirish veb-sahifasida mavjud: <https://eur-lex.europa.eu/browse/summaries.html>



Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy talab)



Agar siz Yevropa Ittifoqiga «organik» mahsulotni eksport qilishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, bunday mahsulot Yevropa Ittifoqining oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yilgan boshqa majburiy talablariga qo'shimcha ravishda organik mahsulot to'g'risidagi maxsus qonun hujjatlariga muvofiq kelishi kerak.

Yevropa Ittifoqi (YI) bozoriga ishlab chiqarishning organik usullaridan foydalanilgan mahsulotni joylashtirish YI Kengashining No 834/2007-sonli Reglamentida belgilangan qoidalarga muvofiq kelishi kerak.

Ushbu qoidalar asosan quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Mahsulotni yaratish barcha bosqichlarining (ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash, tashish va saqlash) sertifikatlovchi organ tomonidan sertifikatlanganligi.
- Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda muayyan mahsulot va vositalardan foydalanish (YI komissiyasi 889/2008-sonli Reglamentining VIII va IX ilovalari).
- Ma'qullangan ingridiyentlar ro'yxatini organik qishloq xo'jaligi ma'lumot tizimining ma'lumotlar bazasidan olish mumkin (OFIS).
- Organik ishlab chiqarishda genetik modifikatsiyalangan mahsulotlardan va ulardan tayyorlangan mahsulotlardan foydalanishni taqiqlash.
- Yevropa Ittifoqida Organik mahsulot logotipidan foydalanish.
- Ishlab chiqarishning organik usullaridan foydalanishlikni ko'rsatuvchi logotip va belgilardan YI qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha shartlarga javob beradigan muayyan mahsulot uchun foydalanish mumkin.
- Mahsulotning ushbu turi uchun inspeksiya chora-tadbirlari va aniq nazorat sxemalari Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarining tayinlangan organlari tomonidan qo'llanishi kerak.

Uchinchi mamlakatlardan import qilish. Uchinchi mamlakatlardan keltiriladigan organik mahsulotlar, agar ular ishlab chiqarish qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lsa va YI qonunchiligiga ko'ra muvofiqlikka yoki ekvivalentlikka tekshirilishi lozim bo'lsa, organik mahsulot ekanligi ko'rsatilib YI bozoriga joylashtirilishi mumkin.

Siz organik mahsulotlar YI tomonidan e'tirof etilgan muassasalar yoki organlar tomonidan sertifikatlangan bo'lsa, ularni Yevropa Ittifoqiga eksport qilishingiz mumkin.

YI e'tirof etgan nazorat qiluvchi muassasa yoki hokimiyat organi tomonidan sertifikatlashtirish. Tekshirishlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan muassasalar ma'murlarining nazorat qiluvchi organlari va muassasalar ro'yxati organik qishloq xo'jaligi ma'lumot tizimining veb-sahifasida joylashtirilgan (OFIS).



Hujjatlarni tekshirish. Import qilinadigan yuklarga uchinchi davlatdagi vakolatli organ yoki muassasa tomonidan berilgan, yuk YI qonun hujjatlariga muvofiq kelishini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinishi kerak. Sertifikatning asl nusxasi tovarga birinchi qabul qiluvchi joylashgan joyga qadar ilova qilinishi kerak, shundan so'ng import qiluvchi sertifikatni tekshiruvchi organlarga va/yoki muassasalarga taqdim etish uchun kamida ikki yil davomida o'zida saqlashi lozim.

Yukni tekshirish. Yevropa Ittifoqiga organik mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish uchun zarur shartlar quyidagilardan iborat: inspeksiya sertifikatining asl nusxasini taqdim etish, yukni tekshirish va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning tegishli organi tomonidan inspeksiya sertifikatining ma'qullanishi.

Qonun hujjatlari

- YI Kengashining 2007 yil 28 iyunda qabul qilingan organik mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularga belgi qo'yishga doir 834/2007-sonli Reglamenti (OJ L-189 20/07/2007) ([CELEX 32007R0834](#)).
- Organik mahsulot ishlab chiqarishda muayyan mahsulotlar va moddalardan foydalanishga ruxsat beruvchi va ularning ro'yxatlarini belgilovchi 2021 yil 15 iyuldagi 2021/1165-sonli Komissiyani amalga oshirishga doir reglamenti (OJ L-253) ([CELEX 32021R1165](#))
- Uchinchi mamlakatlardan ekologik toza mahsulotlarni import qilish chora-tadbirlari borasida YI Kengashining 834/2007-sonli Reglamentini amalga oshirishning batafsil qoidalarini belgilab beruvchi YI Komissiyasining 2008 yil 8 dekabrda qabul qilingan 1235/2008-sonli Reglamenti (OJ L-334 12/12/2008) ([CELEX 02008R1235-20220101](#))
- YI Kengashining 834/2007-sonli Nizomning 27-moddasida (OJ C-189, 28/06/2007) nazarda tutilgan nazorat uchun mas'ul muassasalar yoki davlat organlari ro'yxati.

Boshqa ma'lumot manbalari

- Organik mahsulotni Yevropa Ittifoqiga import qilishga doir tavsiyalar. Hujjat Qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarini rivojlantirish Bosh direktoratining Organik xo'jalik bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan (Guidelines for Imports of Organic Products from Third Countries into the European Union) https://www.oekolandbau.de/fileadmin/redaktion/Bildarchiv/Bio-Siegel/user_upload/Dokumente/Broschueren/LeitlinienImporteureEN.pdf
- OFIS (Organic Farming Information System – organik qishloq xo'jaligi ma'lumot tizimi) veb-sahifasida import ruxsatnomasi, ingridiyentlarga ruxsatnoma,



tekshirishlar uchun mas'ul muassasalar yoki davlat organlarini o'z ichiga olgan ma'lumot jamlanmasi keltirilgan:

http://ec.europa.eu/agriculture/ofis_public/index.cfm



Ixtiyoriy standartlar va bozor talablari. Mahsulotlarning qonuniy talablarga muvofiqligi ularning Yevropa Ittifoqi hududida erkin aylanishi va sotilishiga imkon bersa-da, aksariyat hollarda bu yirik va muhim bozor ishtirokchilari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun yetarli bo'lmashligi mumkin.

Mahsulot xaridorlari Yevropa Ittifoqi qonunchiligida belgilangan majburiy talablarga qo'shimcha ravishda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga, tarkibi, xavfsizligi va sifatiga, ularni qadoqlash va tamg'a bosish (markirovkalash)ga aniq talablar qo'yishlari mumkin.

Odatda, ularni Yevropa supermarketlari, chakana savdo tarmoqlari yoki boshqa mijozlar talab qiladi. Ular uchun ishlab chiqarish jarayoni/usullari, ishlab chiqarish gigiyenasi darajasini kafolatlaydigan dastlabki shart-sharoitlar dasturlarini joriy etish, mahsulot tavsifi muhim ahamiyatga ega. Ushbu talabga muvofiqlik tegishli sertifikatlar bilan tasdiqlanishi, shuningdek ISO, GlobalG.A.P., Yevropa Ittifoqining organik sertifikatlanishi va boshqalar bilan birga bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda, bu sohada akkreditatsiyadan o'tgan mustaqil sertifikatlashtirish tashkiloti tomonidan berilgan sertifikat bo'ladi, shuningdek, sertifikatlashtirish sxemasiga qarab, markirovkada tegishli belgi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ixtiyoriy standartlar kompaniya o'z mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniq belgilashini nazarda tutadi.

Yevropaning aksariyat importchilari oziq-ovqat xavfsizligi sertifikatini taqdim qilmaguningizgacha siz bilan hamkorlik qilmaydi. Ko'pchilik yevropalik xaridorlar Global Oziq-ovqat xavfsizligi tashabbusi (GFSI) tomonidan tan olingan sertifikatni talab qiladi. Meva, yong'oq va sabzavot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar uchun eng tanilgan sertifikatlash dasturlari quyidagilardan iborat:

- Xalqaro sifat standartlari (IFS);
- Britaniya chakana savdo konsortsiumining global standartlari (BRCGS);
- Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini sertifikatlash (FSSC 22000).
- GLOBALG.A.P. Yaxshi qishloq xo'jaligi amaliyoti xalqaro standarti.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini sertifikatlashning turli tizimlari shunga o'xshash tamoyillarga asoslangan bo'lsa-da, ba'zi xaridorlar bitta boshqaruv tizimini afzal ko'rishlari mumkin. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sertifikati Yevropaga eksport qilishni boshlashning asosi ekanligiga e'tibor qarating. Jiddiy xaridorlar odatda shartnoma imzolashdan oldin sizning ishlab chiqarish quvvatlaringizga tashrif buyurishadi yoki audit o'tkazadilar.

Misol tariqasida Yevropa bozorida qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari uchun eng muhim bo'lgan ba'zi standartlar quyida keltirilgan:



Xalqaro oziq-ovqat standarti – International Food Standard (IFS)



International
Featured Standards

IFS oziq-ovqat standarti oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchining qonunchilik talablari va buyurtmachining tasnif (spetsifikatsiya)lariga muvofiq xavfsiz, haqiqiy va sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini baholash maqsadida mahsulot va ishlab chiqarish jarayonlarini tekshirishni nazarda tutadi. U korxonalarga bozorning shaffoflik va kuzatib borish borasidagi o'sib borayotgan talablarini qondirishga yordam beradi, shuningdek, mahsulot yaxlitligi va samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. Auditorlar mustaqil akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlarida ishlaydigan IFSning malakali auditorlari tomonidan o'tkaziladi. U oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash kompaniyalari va ommaviy oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash bilan shug'ullanuvchi korxonalarda mahsulotlarining xavfsizligi va sifatini tekshirish uchun qo'llaniladi.

Britaniya chakana savdo konsortsiumi (BRC) oziq-ovqat xavfsizligi global standarti – British Retail Consortium (BRC) Global Standard for Food Safety (BRCGS)



Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha BRC global standarti oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash yoki qadoqlashdagi barcha jarayonlariga qo'llaniladi. BRCSG sertifikat ta'minot zanjirida muhim kafolat va ishonchni, shuningdek, iste'molchilarni himoya qilish uchun yuqori darajadagi xavfsizlik va sifatni ta'minlaydi. Oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mahsulotlari sohasida jahon bozorining eng nufuzli yetakchisi sifatida BRCSG o'z turidagi eng ko'p e'tirof etilgan sertifikat hisoblanadi va butun dunyo bo'ylab brendlar, chakana sotuvchilar va tasniflari bo'yicha mutaxassislar tomonidan qabul qilinadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi tizimini sertifikatlash – Food Safety System Certification (FSSC 22000)



FSSC 22000 standarti Niderlandiyada ishlab chiqilgan va ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi standarti, sohaga oid shartlar dasturi (PRP) va FSSC tomonidan belgilangan qo'shimcha talablar asosida ishlab chiqilgan. Standart oziq-ovqat zanjiridagi kompaniyalarning oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarini sertifikatlash uchun ishlab chiqilgan, masalan, hayvonlardan olingan xom ashyoni birlamchi ishlab chiqarish, asalni qayta ishlash, tez buziladigan mahsulotlar, uzoq umr ko'radigan mahsulotlar va (boshqa) qo'shimchalar, vitaminlar va biokulturalar kabi oziq-ovqat tarkibiy qismlari. U butun oziq-ovqat zanjirini qamrab oladi, hajmi, murakkabligi yoki



sektoridan qat'i nazar, barcha oziq-ovqat korxonalari uchun amal qiladi va xalqaro savdo uchun tan olinagan.

Maqbul qishloq xo'jaligi amaliyoti GLOBAL G.A.P. xalqaro standarti



GLOBAL G.A.P. (Yaxshi qishloq xo'jaligi amaliyotlari) – bu xususiy ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimidir. Bu sertifikat ko'pincha Yevropada sarxil meva va sabzavotlarni xaridorlari tomonidan so'raladi. Sertifikatlash turli qishloq xo'jaligi amaliyotlarini qamrab oladi, ekinlarni boshqarishdan tortib, ishchi-xodimlarning salomatligi va atrof-muhit masalalarigacha. Ushbu sertifikatga muvofiqlicingiz qishloq xo'jaligida yaxshi amaliyotlar tizimini yaratganingiz va hujjatlashtirganzini tasdiqlaydi. Tizim Yevropadagi barcha yirik chakana sotuvchilar, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi chakana sotuvchilar tomonidan qo'llaniladi. Xaridorlar GLOBAL G.A.P bilan sertifikatlangan mahsulotlarni Yevropaning turli supermarketlarida osonroq sotishlari mumkin. Bu Yevropa supermarketlariga sarxil qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi xaridorlar uchun minimal standartga aylangan.

Oziq-ovqat mahsulotlariga eng keng tarqalgan ixtiyoriy standartlar:

Sertifikatlash	Tavsifi	Sertifikatlash turi va yo'nalishi
Organic	Organik qishloq xo'jaligi – bu sintetik o'g'itlar va pestitsidlar, hamda GMOdan foydalanmaydigan va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun biologik jarayonlarga tayanadigan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uslubidir. Yevropa Ittifoqi Reglamenti qoidalariga muvofiq sertifikatlashni va sertifikatni har yili uzaytirishni talab etiladi.	Ekologik audit, barqaror rivojlanish
ISO22000	Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi – oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha global tashabbus (GFSI) da e'tirof etilmagan bo'lsa-da, oziq-ovqat kodeksi (Codex Alimentarius) ga muvofiq HACCP tamoyillarini qamrab oluvchi oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimining xalqaro standartidir.	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimi
FSSC22000	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini sertifikatlash – tabiiy ingridientlar va yarim tayyor mahsulotlardan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ISO standartlariga asoslangan, qo'shimcha maxsus talablarga tayanagan eng maqbul sertifikatlash, GFSI tomonidan tan olingan standart tizimi bo'lib, yillik nazorat auditlari bilan uch yillik sertifikatdir.	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimi
SQF	Xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari – GFSI tomonidan tan olingan oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini boshqarish tizimi, Yevropada keng tarqalmagan, sertifikatning amal qilish muddati bir yil.	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va sifatini boshqarish



Sertifikatlash	Tavsifi	Sertifikatlash turi va yo'nalishi
BRCGS	Britaniya Chakana savdo konsortsiumi (BRC)ning xalqaro standartlari – Buyuk Britaniya va Yevropa oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladigan, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari va chakana sotuvchilar (yakuniy mahsulotlar) ga mo'ljallangan bo'lib, GFSI standartlariga moslashtirilgan, reytingga qarab har 6 yoki 12 oyda bir marta qayta sertifikatlashdan o'tiladi.	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi
IFS	Xalqaro ixtisoslashtirilgan standartlar – Yevropada oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi, Buyuk Britaniyada ham tan olingan, GFSI standartlariga mos keladi, ishlab chiqaruvchilar va chakana sotuvchilar (yakuniy mahsulotlar) ga yo'naltirilgan, ikkinchi yil oxirigacha amal qiladi.	Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi
SMETA	Sedex a'zolarining axloqiy savdo auditi (yetkazib beruvchining axloqiy ma'lumotlarini almashish) – xaridorlar tomonidan yuqori e'tirof etiladigan, supermarketlarga mo'ljallangan bo'lib, Sedex SAQ o'zini-o'zi baholash so'rovnomasi mavjud va auditorlik hisoboti 12 oy davomida amal qiladi.	Savdoda axloqiy me'yorlarga rioya qilish
amfori BSCI	Biznesning ijtimoiy muvofiqligi tashabbusi (BSCI) sertifikatini Yevropa Global Savdo Uyushmasi (Amfori) tashabbusi bo'lib, siyosat va amaliyotlar uchun axloq kodeksi (Code of Conduct) hisoblanadi.	Ijtimoiy audit
Fair for Life	Fair for Life „Hayot uchun adolati“ – kompaniyalar va ta'minot zanjirlarini, shu jumladan zanjirning barcha bosqichlarida axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni tasdiqlaydi.	Adolatli savdo va ijtimoiy mas'uliyat
Fairtrade	Adolatli savdo – asosiy e'tibor muayyan mahsulotlarga xos mahsulotlarni sertifikatlash, ishlab chiqaruvchilar guruhi va kooperativlar, mehnat sharoitlari va hamjamiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.	Barqaror rivojlanish va axloq – halol savdo
FairWild	Barqaror yig'ma sertifikatlash standarti – yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni (masalan, dorivor va xushbo'y o'simliklar) barqaror yovvoyi yig'ish uchun ekologik, ijtimoiy-madaniy va ishbilarmonlik masalalarini hal qilishga qaratilgan.	Barqaror rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, yovvoyi o'simliklarni yig'ish
Faqat sarxil meva va sabzavotlar		
GLOBALG.A.P. –Integrated Farm Assurance (IFA) – Fermer xo'jaligining integratsiyalashgan kafolati (IFA)	Maqbul qishloq xo'jaligi amaliyotining xalqaro standarti – asosan chakana savdo tarmoqlari uchun Yevropaga sarxil meva va sabzavotlar eksport qilish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi amaliyotining xalqaro standarti dastlabki shartdir. Sertifikatlar har bir mahsulotga beriladi va bir yil mobaynida amal qiladi.	Qishloq xo'jaligi amaliyotlari
GRASP – GLOBALG.A.P. Risk Assessment on Social Practice – "Ijtimoiy amaliyotning xavflarini baholash"	Fermer xo'jaliklari darajasida xodimlarning sog'lig'i, xavfsizligi va farovonligini baholash uchun GLOBALG.A.P.ga ijtimoiy tarkibiy qismini qo'shish.	GLOBALG.A.P.ga ijtimoiy qo'shimcha




6

O'zbekistondan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga meva-sabzavot mahsulotlarining ayrim turlarini eksport qilishda qo'yiladigan talablar (Germaniya misolida)

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi bo'yicha statistik ma'lumotlarida o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekistondan Yevropa Ittifoqiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi barqaror o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Bu ijobiy tendentsiya qisman O'zbekistonning iqtisodiy liberallashtirish siyosati va uning Yevropa Ittifoqidagi GSP + maqomi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda, so'nggi yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tuzilmasi quyidagicha:



Bu yerda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosi bo'yicha batafsil statistik ma'lumotlarni topishingiz mumkin:

https://agriculture.ec.europa.eu/document/download/339acbd4-04bc-42ac-90a5-55f751d0b103_en?filename=agrifood-uzbekistan_en.pdf

Bunga qo'shimcha ravishda, Yevropa Ittifoqining qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha dunyoning qolgan qismi, alohida mamlakatlar va tanlangan mintaqalar bilan savdosi to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu havola orqali olishingiz mumkin:

https://agriculture.ec.europa.eu/data-and-analysis/markets/trade-data/trade-countryregion/trade-value_en



Sarxil mevalar



O'zbekistondan Germaniyaga sarxil mevalarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni o'rikni eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz.

08-GURUH. ISTE'MOL QILINADIGAN MEVA VA YONG'OQLAR

TIF TN kodi: 08091000

Mahsulot ta'rifi: O'rik

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

O'rik uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi (Access2Markets platformasidagi Import talablari bo'limiga qarang):

- oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- inson iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan o'simliklar va hayvon go'shtidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlarning qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- hayvonlar go'shtidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish;
- ho'l meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari;
- fitosanitariya nazorati;
- oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqaning kuzatib tekshirish imkoniyati, muvofiqligi va majburiyatlar.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 7%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'lchov birligi turi	Tarif	Izoh	YI qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	20%	PB001	R2522/24 P2658/87
GSP+	Tarif imtiyozi	0%(faqat belgilangan fasllarda 1 yanvardan 31 maygacha va 1 avgustdan 31 dekabrgacha)	PB001	R0978/12

Izoh: **PB001** Boj stavkasi import qilinadigan tovarlar uchun narx tizimi bilan bog'liq. Iltimos, shartlarga e'tibor bering.



Qurilgan mevalar



O'zbekistondan Germaniyaga quruq mevalarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni quritilgan o'rik eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz.

08-GURUH. ISTE'MOL QILINADIGAN MEVA VA YONG'OQLAR

TIF TN kodi: 08131000

Mahsulot ta'rifi: Quritilgan o'rik

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

Quritilgan o'rik uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi (Access2Markets platformasidagi Import talablari bo'limiga qarang):

- Oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- Onson iste'moli uchun mo'ljallangan o'simlik va hayvonot mahsulotlarida pestitsidlar qoldiqlarini nazorat qilish.
- Genetik modifikatsiyalangan (GM) mahsulotlar va yangi oziq-ovqatlarni nazorat qilish.
- Hayvonlardan tashqari oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya nazorati.
- O'simliklar salomatligini nazorat qilish.
- Oziq-ovqat mahsulotlarini etiketlash.
- Oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqa uchun kuzatuv, muvofiqlik va majburiyatlar.
- Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy).

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 7%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'ichov birligi turi	Tarif	Izoh	YI qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	5,60%		R2204/99 P2658/87
GSP+	Tarif imtiyoz	0%		R0978/12



O'zbekistondan Germaniyaga quruq mevalarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni quritilgan uzum eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz.

08-GURUH. ISTE'MOL QILINADIGAN MEVA VA YONG'OQLAR

TIF TN kodi: 08062030

Mahsulot ta'rifi: Quritilgan uzum – Sultanas

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

Quritilgan uzum uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi (Access2Markets platformasidagi Import talablari bo'limiga qarang):

- oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- inson iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan o'simliklar va hayvon go'shtidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlarning qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- hayvonlar go'shtidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish;
- ho'l meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari;
- oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqaning kuzatib tekshirish imkoniyati, muvofiqligi va majburiyatlar.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 7%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'Ichov birligi turi	Tarif	Izoh	Yil qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	2,40 %		R2204/99 P2658/87
GSP+	Tarif imtiyoz	0% * (2-izohga qarang)	CD597	R0978/12

Izohlar:

1). CD597 Erkin muomalaga chiqarish uchun umume'tirof etilgan import hujjatini yoki uning elektron ekvivalentini taqdim etish zarur. Ushbu hujjat barcha nazorat chora-tadbirlari o'tkazilgandan keyin va talab etilganda qulay fizik tekshirish natijalari olingandan keyin tegishli ravishda vakolatli organ tomonidan to'liq to'ldirilgan bo'lishi kerak.

2). * sof og'irligi 2 kg. dan ortiq bo'lgan birlamchi qadoqlangan ex 08062030 kichik toifasi ostida mahsulotlar bundan mustasno.



Sarxil sabzavotlar



O'zbekistondan Germaniyaga yangi uzilgan sabzavotlarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni karamni eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz

07-GURUH. Sabzavotlar va ayrim iste'mol qilinadigan ildiz mevalari va tuganakli mevalari

TIF TN kodi: 7049010

Mahsulot ta'rifi: oq boshli va qizil boshli karam

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

Karam uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi:

- oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- inson iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan o'simliklar va hayvon go'shtidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlarning qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- hayvonlar go'shtidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish;
- ho'l meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari;
- oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqaning kuzatib tekshirish imkoniyati, muvofiqligi va majburiyatlar.
- Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy).

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 7%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'lchov birligi turi	Tarif	Izoh	YI qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	12% MIN 0,4 EUR/100 kg		R2204/99
GSP+	Tarif imtiyozi	0%		R0978/12



Qurilgan sabzavotlar



O'zbekistondan Germaniyaga quritilgan sabzavotlarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni quritilgan pomidor eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz.

07-GURUH. Sabzavotlar va ayrim iste'mol qilinadigan ildiz mevalari va tuganakli mevalari

TIF TN kodi: 7129030

Mahsulot ta'rifi: quritilgan sabzavotlar – pomidor

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

Qurilgan pomidor uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi:

- oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- inson iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan o'simliklar va hayvon go'shtidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlarning qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- hayvonlar go'shtidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqaning kuzatib tekshirish imkoniyati, muvofiqligi va majburiyatlar.
- Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy).

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 7%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'Ichov birligi turi	Tarif	Izoh	Yil qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	12,8%		R2204/99
GSP+	Tarif imtiyoz	0%		R0978/12



Quritilgan dukkaklilar



O'zbekistondan Germaniyaga quritilgan dukkaklilarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni loviya eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz.

07-GURUH. Sabzavotlar va ayrim iste'mol qilinadigan ildiz mevalari va tuganakli mevalari

0713 – QURUQ DUKKAKLI SABZAVOTLAR, TOZALANGAN YOKI TOZALANMAGAN, BO'LINGAN YOKI BO'LINMAGAN

TIF TN kodi: 07133390

Mahsulot ta'rifi: Loviya, shu jumladan oq no'xat loviya (*Phaseolus vulgaris*)

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

Loviya uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi:

- oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- inson iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan o'simliklar va hayvon go'shtidan tayyorlangan mahsulotlardagi pestitsidlarning qoldiqlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- hayvonlar go'shtidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqaning kuzatib tekshirish imkoniyati, muvofiqligi va majburiyatlar.
- Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy).

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 7%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'lchov birligi turi	Tarif	Izoh	YI qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	0%		R2204/99
GSP+	Tarif imtiyozi	0%		R0978/12



Sharbatlar va konsentratlar



O'zbekistondan Germaniyaga qayta ishlangan meva va sabzavotlarni eksport qilishda qo'yiladigan talablarni olma sharbatini eksport qilish misolida ko'rib chiqamiz

20-GURUH. Ishlov berilgan sabzavotlar, mevalar, yong'oqlar yoki boshqa o'simlik qismlaridan tayyorlangan qayta ishlangan mahsulotlar

TIF TN kodi: 20097120

Mahsulot ta'rif: Olma sharbati, Briks ko'rsatgichi 20 dan ortiq bo'lmagan, tarkibida shakar qo'shimchalari mavjud

Ishlab chiqarilgan mamlakat: O'zbekiston

Jo'natilayotgan mamlakat: Germaniya

Olma sharbati uchun quyidagi maxsus talablar qo'yiladi:

- oziq-ovqat mahsulotlaridagi ifloslantiruvchi moddalarni nazorat qilish;
- hayvonlar go'shtidan tayyorlanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya jihatidan nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari uchun belgi qo'yish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va hayvonlar uchun ozuqaning kuzatib tekshirish imkoniyati, muvofiqligi va majburiyatlar.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

- QQS stavkasi – 19%
- Aksiz yig'imi – 0%

Tariflar:

Ishlab chiqarilgan joyi	O'lchov birligi turi	Tarif	Izoh	YI qonun hujjatlari
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar boji	18%		R2031/01
GSP+	Tarif imtiyozi	0%		R0978/12



7

Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport logistikasi



O'zbekistonda so'nggi yillarda Markaziy Osiyo va Yevropaning transport-kommunikatsiya o'zaro aloqalarini yaratish maqsadida mavjud multimodal transport yo'laklarini rivojlantirish va yangilarini yaratish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar faol amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonlik mahsulot tashuvchilar o'z tashish hajmini janubiy yo'nalishlarga yo'naltirmoqda. O'zbekiston Yevropa – Kavkaz – Osiyo «TRASEKA» xalqaro transport koridori dasturiga kirganidan keyin Kaspiy orqali Qora dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekistondan yuk oqimi Transkavkaz yo'lagi (TRASEKA) orqali, shuningdek, avtomobil transportida Yevropa tashuvlari uchun tranzit yo'nalishlarda yo'naltiriladi.

Yevropa Ittifoqi bojxona hududiga yuklar tushadigan transport turlari kesimida 2023-yilda O'zbekistondan Yevropa Ittifoqiga yuk oqimida temir yo'l ustunlik qiladi – jismoniy importning 44% i. Ikkinchi o'rinda avtomobil transporti – 36%, uchinchi o'rinda esa dengiz transporti (16%).

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan savdo aloqalarini faol kengaytirmoqda va eksportchilar uchun yuklarning narxi, muddati va turini hisobga olgan holda samarali logistika yo'nalishlarini tanlash muhimdir.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi transport tarmog'i havo, temir yo'l va avtomobil yo'nalishlarini, shuningdek, Kaspiy dengizi portlari orqali dengiz orqali tashishlarni o'z ichiga oladi.

Yevropaga asosiy transport yo'laklari

1. Qozog'iston va Rossiya orqali

Qatnov yo'nalishi (Marshrut):

- **Qozog'iston orqali avtomobil yoki temir yo'l transporti** → Rossiya → Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (Polsha, Germaniya).
- Brest (Belarus) yoki Kuznitsa-Biala-Podlyaska (Polsha) kabi quruqlik o'tish joylaridan foydalaniladi.



Quyidagilar uchun mos keladi: qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari.

Muddatlari: 20-30 kun (qatnov yo'nalishiga bog'liq holda).

Narxi: nisbatan past narxda, ammo sanksiya rejimi tufayli kechikishlar bo'lishi mumkin.

Xavflar:

- Geosiyosiy vaziyat tufayli Rossiya orqali tranzit o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar.
- Transport tariflarining o'sishi.

2. Trans-Kaspiy transport koridori (Kaspiy dengizi va Turkiya orqali)

Qatnov yo'nalishi:

- **Avtomobil yoki temir yo'l transporti:** O'zbekiston → Qozog'iston → Aktau dengiz porti (Qozog'iston) → Kaspiy dengizi → Boku porti (Ozarbayjon) → Gruziya → Turkiya → Yevropa Ittifoqi.
- „O'rta yo'lak“ temir yo'l yo'nalishidan foydalaniladi.
- Turkiya (Mersin porti) orqali dengiz tranziti amalga oshirilishi mumkin.

Quyidagilar uchun mos keladi: quritilgan mevalar.

Muddatlari: 25-35 kun.

Narxi: o'rtacha, ammo barqaror.

Afzalliklari:

Geosiyosiy xavflarni kamaytirish. Turkiya va YI portlariga kirish.

Xavflar:

Aqtau va Boku portlarining cheklangan o'tkazish qobiliyati. Gruziya va Turkiya bilan chegarada kechikishlar bo'lishi mumkin.

3. Eron va Turkiya orqali

Qatnov yo'nalishi:

- **Temir yo'l yoki avtomobil transporti:** O'zbekiston → Turkmaniston → Eron (Bender-Abbos porti) → Turkiya → Yevropa Ittifoqi.
- O'rta er dengizi orqali Italiya, Ispaniya, Frantsiya portlariga dengiz transporti.

Quyidagilar uchun mos keladi: qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari.

Muddatlari: 25-40 kun.



Narxi: Rossiya orqali olib borishdan ko'ra yuqori, lekin havo transportidan past narxda.

Afzalliklari:

O'rta yer dengizi portlariga kirish.

Xavflar:

Yetkazib berish muddati uzoq. Eron bilan bog'liq sanksiya xavflari.

4. Aviatashuvlar (tezkor, lekin qimmat variant)

Qatnov yo'nalishi:

Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlaridan Frankfurt, Amsterdam, Milan, Parij aeroportlariga to'g'ridan-to'g'ri reyslar.

Quyidagilar uchun mos keladi: tez buziladigan mahsulotlar (mevalar, sabzavotlar).

Muddatlari: 2-7 kun.

Narxi: yuqori.

Afzalliklari:

Eng tez yetkazib berish usuli. Yuqori ishonchlilik.

Xavflar:

Aviayuklarga yuqori tariflar. Yuk hajmi bo'yicha chekllovlar.

Qatnov yo'nalishlari solishtirilgan jadval:

Qatnov yo'nalishi	Yetkazib berish muddatlari	Narxi	Asosiy mahsulotlar	Xavflar
Rossiya orqali	20-30 kun	past	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari	Sanksiya cheklavlari, kechikishlar
Kaspiy dengizi va Turkiya orqali	25-35 kun	o'rtacha	Quritilgan mevalar	Portlarning cheklangan o'tkazish qobiliyati



Qatnov yo'nalishi	Yetkazib berish muddatlari	Narxi	Asosiy mahsulotlar	Xavflar
Eron va Turkiya orqali	25-40 kun	o'rtacha	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari	Siyosiy xavflar, sanksiya cheklovlari
Aviatashuvlar	2-7 kun	yuqori	Tez buziladigan mahsulotlar (mevalar, sabzavotlar)	Yuqori narx

Yakuniy tavsiyalar:

Keng qamrovli eksport uchun (katta hajmdagi tovarlar): «Trans-Kaspiy transport koridori» yoki Rossiya orqali o'tadigan qatnov yo'nalishidan foydalanish yaxshiroqdir (agar sanksiyalar yukga ta'sir qilmasa).

Yuqori qiymatli va tez buziladigan mahsulotlar uchun: aviatashuvlar, ayniqsa G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchun eng yaxshi variant bo'lib qolmoqda.

Eksportni tashkil qilishda transport va logistikaning ko'plab jihatlarini hisobga olish zarur. Hisobga olish kerak bo'lgan ba'zi muhim jihatlar:

- Har doim bir nechta yuk tashish agentlari bilan ishlashga harakat qiling va turli tariflarni solishtiring
- Yuklashdan oldin konteynerni tekshiring
- Konteynerni ichidagi bo'sh joydan unumli foydalaning
- To'g'ri Inkotermsni shartlarini tanlang – masalan, agar siz katta miqdordagi mahsulotlar bilan savdo qilsangiz, yuk tashish va sug'urta kompaniyalaridan yaxshiroq takliflarni olishingiz mumkin. Bunday holda, CIF narxi (xarajat, sug'urta va yuk) odatda siz uchun raqobatbardoshroq bo'ladi. Agar siz eksportda kam tajribaga ega bo'lsangiz, narxni faqat ExWorks (zavoddan yoki o'zi tashish) yoki FOB (buyurtmachi kemasiga yuklash) asosida narx taklif qilish xavfsizroqdir.
- Transport va yuk hujjatlarini tekshiring
- Jo'natmalarni kuzatish xizmatini tekshiring (masalan: blokcheyn texnologiyasi).



Yevropa Ittifoqining importni nazorat qilish tizimi 2 (ICS2 – Import Control System)



Importni nazorat qilish tizimi – Yevropa Ittifoqiga olib kiriladigan yoki uning hududidan tranzit orqali o'tadigan yuklarning xavfsizligini nazorat qilish uchun zamonaviy oldindan xabardor qilish axborot tizimidir. Yevropa Ittifoqiga mahsulotlarni olib kiruvchi yoki uning hududi orqali tranzitni amalga oshiruvchi barcha iqtisodiy operatorlar yuklarning xavfsizligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ICS2 tizimida „Kirish yig'ma deklaratsiyasi (ENS)“ orqali kiritishlari shart.

ENS asosida barcha mahsulotlar xavfsizlik va nazorat xavfini tahlil qiladi, bu esa yanada maqsadli choralarni qo'llash imkonini beradi. ICS2 qonuniy savdoni osonlashtirish bilan birga, yuqori xavfli yuklarni yanada samarali aniqlash va ta'minot zanjirining eng mos bosqichida aralashishga yordam beradi.

2025-yilning 1-apreldan boshlab barcha yuk tashuvchilar, shu jumladan avtomobil va temir yo'l transporti Yevropa Ittifoqiga jo'natiladigan yoki u tranzit orqali o'tadigan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulotlar kelguniga qadar ICS2 Import nazorati tizimiga kiritishlari zarur bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar tovarlar bojxona punktlariga yetib kelguniga qadar ularning xavfsizligi va himoyasini bojxona nazorati tizimini joriy etish bilan bog'liq.

Yevropa Ittifoqiga eksport yoki tranzit yuklarni tashishlarda ushbu jihatlarni deklarant bilan hamkorlikda quyidagi asosiy talablarga ko'ra hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yangi tizim tashuvchilardan mahsulotlar Yevropa Ittifoqi chegarasiga kelishidan oldin deklarantlar orqali Elektron Import Deklaratsiyasini (ENS) taqdim etishlarini talab qiladi. Ma'lumotlar ICS2 tizimiga kiritilishi va **mahsulotlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni** (jumladan, tovarning batafsil tavsifi va olti xonali TIF TN kodi), **tomonlar** (tashuvchi, jo'natuvchi, qabul qiluvchi, xaridor va tovar sotuvchisi), **transport ma'lumotlari** (transport vositasi identifikatsiyasi, yukning va transport vositasining yo'nalishi, shuningdek transport hujjatlari) va boshqa tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Yuk tashuvchisi barcha mahsulotlar uchun ICS2ga to'liq va aniq dastlabki deklaratsiyasini (ENS) topshirish uchun **qonuniy javobgardir**. ENS mahsulot Yevropa Ittifoqiga kirishning birinchi nuqtasida bojxonaga kelishidan kamida 1 soat oldin topshirilishi kerak.

Yuk tashuvchi barcha boshlang'ich **ichki transport hujjatlaridan/transport yuxkatlaridan zarur ma'lumotlarni ekspeditorlardan** (ular Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi yoki kirmaydigan mamlakatda bo'lishidan qat'i nazar) va yetkazib



berish zanjirining boshqa ishtirokchilaridan (masalan, eksport qiluvchilardan, Yevropa Ittifoqida joylashgan yuklarni oluvchilardan, shu jumladan bir xildagi transport hujjatlarini beruvchi pochta operatorlaridan) olishi shart.

Bu talablarga rioya qilmaslik kechikishlar, jarimalar yoki mahsulotlarning Yevropa Ittifoqiga kirishini rad etilishiga olib kelishi mumkin.

ICS2 tizimi haqida batafsil ma'lumotlarni Yevropa Komissiyasining veb-sahifasida topish mumkin https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs-4/customs-security/ics2_en



Rasmlar: <https://www.cargoo.com/simplifying-ics2-compliance-with-cargoo/>



8

Yevropa Ittifoqi bozoriga kirish va hamkorlar topish usullari

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish



Xalqaro bozorlarga chiqishda to'g'ri yondashuvni tanlash eksportchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'plab ishtirokchilar orasida salohiyatli xaridorlarni aniqlashning ko'plab usullari mavjud. Maqsadli bozoringizda qaysi bozor ishtirokchilar faol ekanligini aniqlang: import qiluvchilar, ulgurji sotuvchilar, chakana sotuvchilar va boshqalar.

Ushbu tadqiqotni o'tkazish orqali siz ta'minot zanjirining xaritasini tuzishingiz va qaysi turdagi sherik biznes yuritish uchun eng mos ekanligini tushunib olishingiz mumkin.

Sizning yangi bozorlarga kirish strategiyangiz nafaqat dastlabki muvaffaqiyatni belgilaydi, balki uzoq muddatli o'sish va sheriklik uchun zamin yaratadi. Quyida ko'rib chiqish lozim bo'lgan asosiy yondashuvlar keltirilgan:

1. Iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri sotish

Iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri sotish mahsulotlarni bevosita yakuniy mijozlarga, ko'pincha onlayn platformalar yoki o'zining chakana savdo shaxobchalari orqali sotishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv vositachilarni istisno qilib, eksportchilarga brend, narx va mijozlar tajribasini to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar: sizning mahsulotingizni o'z mahsulotlari uchun xom ashyo sifatida ishlatadilar, shuningdek, import qiluvchilar bo'lishlari mumkin.

2. Chakana savdo tarmoqlari orqali

Taniqli chakana savdo tarmoqlari bilan hamkorlik qilish yangi bozorlarga chiqishning yana bir samarali usulidir. Chakana savdo tarmoqlari kuchli ishtirok, keng tarmoqlar va ishonchli mijozlar bazasiga ega bo'lib, bu sizning brendingizga tanilish va ishonchga ega bo'lishga yordam beradi. Chakana sotuvchilar: oxirgi iste'molchilarga sotadi, lekin yuqorida qayd etilgan to'g'ridan-to'g'ri savdoga nisbatan kamroq tarqalgan bo'lsa-da, import qiluvchi sifatida ham harakat qilishlari mumkin.



3. Xaridlar bo'yicha vakillar orqali

Xaridlar bo'yicha vakil (agent)lar eksport qiluvchilarni xalqaro xaridorlar bilan bog'lovchi vositachi vazifasini bajaradi. Ular mahalliy bozorlar haqida chuqur bilimlarga ega va xaridorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'ygan holda bozorga kirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Import qiluvchilar, ulgurji sotuvchilar va distribyutorlar: bozorda qayta sotish uchun tovarlaringizni import qiladi, ombor xizmatlarini ko'rsatadi. Ular bozorni bilishadi va shuning uchun mahsulotlaringizni o'z tarmoqlari orqali tarqatadilar. Ba'zilar esa bozorlarda ishlashadi. Yevropada salohiyatli import qiluvchilar va boshqa foydali tashkilotlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotni 5-ilovadan topish mumkin.



Yevropa bozoriga chiqishning samarali usullaridan biri bu xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishdir. Xaridorlar bilan yuzma-yuz uchrashish uchun savdo yarmarkalari va sanoat tadbirlarida qatnashish.

Ko'rgazma va savdo yarmarkalari – bu salohiyatli xaridorlar bilan dastlabki aloqa o'rnatish uchun qulay joy va bozor aloqalari ma'lumotlar bazasi uchun ma'lumotlar manbaidir. Maqsadli segmentingizga qarab, salohiyatli xaridorlaringiz ishtirok etadigan ko'plab ko'rgazmalar va yarmarkalar mavjud.

Ko'plab yirik importchilar ushbu tadbirlarga, ba'zi hollarda eksponent sifatida ham tashrif buyurishadi. Yangi mijozlar bilan uchrashishdan tashqari, bu har doim mavjud hamkorlar bilan uchrashish va yangi biznesni muhokama qilish uchun yaxshi imkoniyatdir.

Yevropadagi yirik savdo yarmarkasiga tashrif buyurish bozor haqida ko'proq ma'lumot olish uchun yaxshi imkoniyatdir. Siz o'z kompaniyangiz va mahsulotlaringizni taqdim etish uchun bir nechta import qiluvchilarning stendlariga tashrif buyurishingiz mumkin.

Yevropa Ittifoqidagi oziq-ovqat yarmarkalari dunyodagi eng yirik ko'rgazmalar qatoriga kiradi:

FRUIT LOGISTICA (har yili) Sarxil meva-sabzavotlar ko'rgazmasi	Berlin ExpoCenter City, Berlin shahri, Germaniya www.fruitlogistica.de
ANUGA (har 2 yilda) Dunyodagi eng yirik oziq-ovqat va ichimliklar ko'rgazmasi	Köln ko'rgazma markazi, Köln shahri, Germaniya www.anuga.de
SIAL (har 2 yilda) Xalqaro oziq-ovqat sanoati ko'rgazmasi (chakana savdo, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmatlar)	Parij Nord Villepinte ko'rgazma markazi, Parij shahri, Frantsiya www.sialparis.fr
FRUITECH INNOVATION (yiliga bir marta) Qayta ishlash, qadoqlash, logistika	IpacK-Ima SpA Milan, Milan shahri, Italiya www.fruitinnovation.it
ALIMENTARIA (ikki yilda bir marta) Xalqaro oziq-ovqat yarmarkasi, asosan ispaniyalik ko'rgazmachilar ishtirok etadi va HOSTELCO (oziq-ovqat yarmarkasi) bilan hamkorlikda tashkil etiladi.	"Fira de Barcelona Gran Via" kongress-ko'rgazma markazi, Barselona shahri, Ispaniya https://www.alimentaria.com/en/



Yevropadagi eng muhim xalqaro oziq-ovqat yarmakalarining batafsil ma'lumotlari 6-ilovada keltirilgan.

Salohiyatli xaridorlarga sizni onlayn topishiga yordam bering

Yevropada salohiyatli xaridorlarni topish puxta tayyorgarlikni talab qiladi. O'zingizning kompaniyangiz va har bir mahsulotingiz haqida o'ziga xos va raqobatchilardan farq qiladigan ma'lumotlarni tayyorlang. Veb-sahifangizni yarating va muntazam ravishda yangilab boring, professional elektron manzilni moslashtiring va ishonchni mustahkamlash uchun ochiq muloqot qilishga tayyor bo'ling. Bundan tashqari, salohiyatli hamkorlarga O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering, chunki ular O'zbekiston – mamlakat va uning aholisi haqida ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin. Bunga eng yaxshi transport imkoniyatlarini taqdim etish, GSP+ imtiyozlari haqida xabar berish va xaridorlarning maxsus ehtiyojlarini aniqlash kiradi.

Ideal holda, sizning veb-sahifangiz maqsadli bozorlardagi tashrif buyuruvchilarning e'tiborini jalb qilishi, taklifingizni sotib olish istagini yaratishi va oxir-oqibat tashrif buyuruvchini to'lovchi mijozga aylantirishi kerak. Buning bir yo'li – veb-sahifangizning bosh sahifasida ko'zni qamashtiruvchi rasmlar, videolar va qiziqarli kontent bilan noyob savdo taklifingizni yaratishdir. Yevropalik xaridorlar qidiruv tizimiga (odatda Google) mahsulot nomini kiritish orqali yangi yetkazib beruvchilarni qidiradilar. Mahsulot nomining yonida ular «eksportchi», «ishlab chiqaruvchi» yoki «yetkazib beruvchi» kabi so'zlarni ko'shadilar.

Elektron savdo maydonchalaridan samarali foydalanish

Qayta ishlangan meva va sabzavotlarni eksport qiluvchilar uchun muhim bo'lgan kompaniyalar ma'lumotlar bazalari:

europages

- **EUROPAGES** – xalqaro savdo uchun Yevropaning yetakchi B2B savdo maydoni. Dunyo bo'ylab 1,4 milliondan ortiq kompaniya o'z mahsulotlari bilan ro'yxatdan o'tgan. Europages butun dunyo bo'ylab xaridorlar va sotuvchilarni bog'laydi. Siz sohalar bo'yicha qidirishingiz mumkin (masalan, «quritilgan mevalar» yoki «meva va sabzavot sharbatlari»). Natijalarni filtrlashingiz va faqat ishlab chiqaruvchi emas, balki sotuvchi-treyder kompaniyalarni tanlashingiz ham mumkin (masalan, «vakil-agent», «distributor» yoki «ulgurji sotuvchi»).



amazon

- **AMAZON** – Dunyodagi eng mashhur onlayn bozorlardan biri. Uning 310 milliondan ortiq faol akkauntlari bo'lib – oyiga 10 yoki undan ortiq xaridlarni amalga oshiradigan foydalanuvchilar. Amazon tomonidan bajarilishi – Fulfillment by Amazon (FBA) dasturi xizmatlarni tezroq va sifatli bajaradi, chunki bozor yetkazib berishni tezlashtirish uchun mahsulotlarni turli logistika markazlarida tarqatadi.

wlw

- **Wer liefert was (Who Supplies What)** – Germaniya, Shveytsariya va Avstriyadagi yetakchi B2B (biznesdan biznesga) savdo maydonchasi. Mahsulotlarni yoki kompaniyalarni qidiring va natijalarni kompaniya hajmi va faoliyati bo'yicha filtrlang. Qidiruvingizda inglizcha nomlardan tashqari nemis mahsulot nomlaridan foydalaning.

KOMPASS

Your route to business worldwide

- **Kompass** – Obuna bo'lish orqali foydalanish uchun yirik kompaniya ma'lumotlar bazasi. Salohiyatli xaridorlarni topish uchun siz bir nechta filtrlarni qo'llashingiz mumkin. Mahsulot nomini kiritib, natijalar ro'yxatidan «importchilar» ni tanlab, asosiy qidiruvni bepul amalga oshirishingiz mumkin.




Centro de
Comercio
Internacional

- **ITC TradeMap** – Xalqaro Savdo Markazi (ITC)ning xaridorlarni qidirib topish platformasi. Birinchi bosqichda mahsulotingizni bosh sahifadan tanlang (mahsulot nomi va TIF TN kodini kiriting). Ikkinchi bosqichda, ochiladigan ro'yxatdan bozorni tanlang va «Kompaniyalar» tugmasini bosing. Oxirgi



bosqichda salohiyatli xaridorlar va ularning kontaktlarini ko'rish uchun mahsulot toifalarini bosing:



Ushbu platformada siz qo'shimcha ma'lumot olish uchun boshqa vositalarni ham topasiz.

Raqamli B2B platformalari va elektron savdo maydonchalari



Qayta ishlangan meva-sabzavot sohasida B2B savdo maydonchalari asosan yevropalik xaridorlarni boshqa qit'alardagi yetkazib beruvchilar bilan bog'lash uchun ishlatiladi, ammo xorijdagi haqiqiy buyurtmalar odatda onlayn tarzda joylashtirilmaydi. Onlayn buyurtma ko'pincha



Yevropadagi oziq-ovqat operatorlari (masalan, qayta ishlovchilar yoki uyga yetkazib berish restoranlari) tomonidan qo'llaniladi, lekin bu Yevropadan tashqaridagi mamlakatlardan import qilish uchun juda kamdan-kam hollarda uchraydi.

Qayta ishlangan va sarxil meva va sabzavotlarni eksport qiluvchilar uchun mos bo'lgan ba'zi onlayn hamkorlar topish platformalari:

- **Frozen B2B** – Muzlatilgan mahsulotlar uchun onlayn savdo maydonchasi. Ba'zi oddiy qidiruvlarga bepul ruxsat berilgan bo'lsa-da, obuna orqali foydalanish mumkin
- **BetterECO** – Integratsiyalashgan kuzatuvga ega B2B savdo platformasi. Ayniqsa, barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilgan holda ishlab chiqarilgan quruq meva va iste'mol qilinadigan yong'oq yetkazib beruvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Obuna talab qilinadi.
- **GreenTrade** – Organik oziq-ovqat mahsulotlari uchun onlayn bozor. Qayta ishlangan meva va sabzavotlar (masalan, "meva va sabzavotlar", "ichimliklar") taalluqli bir necha toifadagi xaridorlarning joriy e'lonlarini qidiring. Kompaniyaning aloqa ma'lumotlarini ko'rish uchun obuna bo'lishingiz kerak.
- **Alibaba** – Aniq bir mahsulotlarga yo'naltirilmagan yetakchi B2B elektron tijorat platformasi.
- **Tridge** – Marketing ma'lumotlari va onlayn yetkazib beruvchilarni qidirish markazi.

Narxlarini tekshirish va salohiyatli importchilarni topish uchun, quyidagi internet-do'konlardan foydalaning: REWE, Tegut, Bringmeister, Mytime, Amazon Fresh, Freshorado, Stadt Land Frucht, Frische Helden va Etepetete.





9

Eksportyorlar uchun foydali manbalar



Savdo yordamchisi – Access to Market Trade Assistant (Access2Markets) –

Bu Yevropa Ittifoqidagi bojlar, soliqlar, qoidalar va bozoridagi mahsulotlarga qo'yiladigan talablar bo'yicha eksport va importni qo'llab-quvvatlash xizmati.



Partners in Transformation
Business & Development
Network

Import Promotion Desk (IPD) – Germaniya hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan

loyiha bo'lib, tanlangan hamkor mamlakatlardan ma'lum mahsulot va xizmatlar importini barqaror va tizimli ravishda rag'batlantirishni taklif qiladi. Loyiha Germaniya importchilari va rivojlanayotgan bozorlar eksportchilari manfaatlarini birlashtiradi.



Centro de Comercio Internacional

Xalqaro savdo markazi (ITC) – barqaror savdoni rivojlantirish agentligi hisoblanadi.

U xalqaro transport va logistika kabi eksportni qo'llab-quvvatlash uchun turli platformalar va vositalarni taklif etadi.



Government of the Netherlands

CBI (Rivojlanayotgan mamlakatlar importini

rag'batlantirish markazi) – Gollandiya hukumati tashkiloti bo'lib, mahsulot va xizmatlarni Yevropaga eksport qilishga yordam beradi.





UNECE

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining Qishloq xo'jaligi sifati standartlari bo'yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan **sifat bo'yicha standartlari.**



Yevropa Ittifoqining GSP+ umumiy preferensiyalar tizimi:

- Savdo bosh direksiyasining imtiyozlarining umumiy sxemasi – GSP bo'yicha Yevropa Ittifoqining rasmiy sahifasi
- GSP axborot byulleteni
- GSP+ ga kiritilgan mahsulotlarning to'liq ro'yxati (GSP bo'yicha Reglamentga IX ilova)
- GSP Hub veb-sahifasi:
gsphub.eu



Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) miqdorlari
Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda QQSning amaldagi stavkalari (% da),
(2025-yil yanvar holatiga)

<https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/content/value-added-tax-1>

A'zo davlatlar	Standart stavkasi	Pasaytirilgan stavkasi	Eng past (Super pasaytirilgan) stavkasi
Avstriya	20	10 – 13	–
Belgiya	21	6	–
Bolgariya	20	9	–
Kipr	19	5	–
Chexiya	21	12	–
Daniya	25	–	–
Estoniya	22	0 – 9	–
Finlandiya	25,5	10 – 14	–
Frantsiya	20	10 – 5,5	2,1
Germaniya	19	0 – 7	–
Gretsiya	24	13	6
Xorvatiya	25	13	5
Vengriya	27	18 – 5	–
Irlandiya	23	9 – 13,5	0 – 4,8
Italiya	22	10 – 5	4
Latviya	21	0 – 5 – 12	–
Litva	21	9	0 – 5
Lyuksemburg	17	8	3
Malta	18	5	–
Niderlandiya	21	9	–
Polsha	23	8	5
Portugaliya	23	6 – 13	–
Ruminiya	19	9	5
Slovakiya Respublikasi	23	19	5
Sloveniya	22	9,5	5
Ispaniya	21	10	4
Shvetsiya	25	6 – 12	–

Yevropa Ittifoqiga import qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlariga bojxona tariflari

Yevropa Ittifoqiga uchinchi davlat boji (MFN) va GSP+ umumiy imtiyozlar tizimi bo'yicha import qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlariga bojxona tariflari
(Yevropa Ittifoqining 2012-yil 25-oktabrdagi R0978/12 Reglamentiga muvofiq)

TIF TN kodi	Mahsulot nomi	MFN * Tarifi	GSP+ Tarifi
Mevalar:			
0813 10	Quritilgan o'rik	5,60%	0%
0813 20	Quritilgan olxo'ri	5,60%	0%
0813 30	Quritilgan olma	5,60%	0%
080620	Quritilgan uzum, 0806 20 30 kichik toifasidagi mahsulotlardan tashqari, birlamchi qadoqlangan aniq og'irligi 2 kg. dan ortiq bo'lgan	2,40%	0%
0802 31	Po'stlog'idan tozalanmagan yong'oq	4,0%	0%
0802 32	Po'stlog'idan tozalangan yong'oq	5,10%	0%
08021190	Po'stlog'idan tozalanmagan bodom, sarxil yoki quritilgan, achchiq bodomdan tashqari	5,60%	0%
08021290	Po'stlog'idan tozalangan bodom, sarxil yoki quritilgan, achchiq bodomdan tashqari	3,50%	0%
0802 51 00 0802 52 00	Pista (po'stlog'idan tozalangan yoki tozalanmagan)	1,60%	0%
0806101090	Uzumning boshqa navlari, sarxil holda	14,10%	0%
080910	Sarxil o'rik, 1-yanvardan 31-maygacha va 1-avgustdan 31-dekabrgacha **	20%	0%
080921	Olcha sarxil	12%	0%
080929	Shirin gilos – 1-yanvardan 20-maygacha va 11-avgustdan 31-dekabrgacha, achchiq qilodan tashqari **	12%	0%
080930	Shaftoli, shu jumladan nektarinlar, sarxil holda, 1-yanvardan 10-iyungacha va 1-oktabrdan 31-dekabrgacha **	17,60%	0%
080940	Sarxil olxo'ri, 1-yanvardan 10-iyungacha va 1-oktabrdan 31-dekabrgacha**	6,40%	0%
Sabzavotlar:			
071220	Quritilgan sabzavotlar, butun, bo'laklarga, tilimga kesilgan, maydalangan yoki kukun holida, lekin qo'shimcha ishlov berilmagan, 0712 90 19 kichik toifasi ostida mahsulotlar bundan mustasno	12,80%	0%
071390	Quritilgan dukkakli sabzavotlar, tozalangan yoki tozalanmagan, bo'lingan yoki bo'linmagan	3,20%	0%
070410	Boshli karam, gulkaram, kolrabi, karam va shunga o'xshash Brassica turidagi sarxil va sovutilgan sabzavotlar	13,60%	0%
0706	Sabzi, sholg'om, lavlagi, selderey ildizi, turp va shunga o'xshash iste'mol qilinadigan ildiz sabzavotlari, sarxil yoki sovutilgan	13,60%	0%
070310	Piyoz va shalot piyoz, sarxil yoki sovutilgan	9,60%	0%
0709939000	Qovoq, patisson va zukkini (кабачки) (Cucurbita spp.), sarxil va muzlatilgan	12,80%	0%
080711	Poliz ekinlari – sarxil qovun va tarvuz	8,8%	0%
Dukkaklilar:			
070810	Dukkakli sabzavotlar tozalangan yoki tozalanmagan, sarxil yoki sovutilgan: no'xat	13,60%	0%
070810	Loviya	10,40%	0%
070890	Boshqa dukkaklilar	11,20%	0%

* MFN – Savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi

** Eslatma: Tarif imtiyozlari faqat belgilangan mavsumlarda amal qiladi!

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mikrobiologik mezonlar
Sabzavotlar, mevalar va qayta ishlangan mahsulotlarga
 (YI ning 2005-yil 15-noyabrdagi 2073/2005-sonli Reglamentiga muvofiq)

1-bo'lim: Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi mezonlari

Oziq-ovqat toifasi	Mikroorganizm	Namu- nalarni saralash rejasi		Chegaralari		Tahliliy usul	Mezon qo'llaniladigan bosqich
		n	c	m	M		
1.19. Avvaldan kesilgan (foydalanishga tayyor bo'lgan) meva va sabzavotlar	Salmonella	5	0	25 g da yo'q		EN/ISO 6579	Yaroqlilik muddati davomida sotuvga qo'yilgan mahsulotlar
1.20 Pasterizatsiya qilinmagan (foydalanishga tayyor bo'lgan) meva va sabzavot sharbatlari	Salmonella	5	0	25 g da yo'q		EN/ISO 6579	Yaroqlilik muddati davomida sotuvga qo'yilgan mahsulotlar

n – olingan namunalar soni

c – ko'rsatkichlar m va M oralig'ida bo'lgan namunalar soni

Natijalarni sharhlash:

Salmonella oziq-ovqat mahsulotlarining turli toifalarida:

- agar barcha olingan natijalar bakteriyalarning yo'qligini ko'rsatayotgan bo'lsa, qoniqarlidir;
- agar biror-bir namunada bakteriya mavjudligi aniqlansa, qoniqarsizdir.

2-bo'lim: Ishlab chiqarish jarayonlari gigiyenasi mezonlari

2.5. Sabzavotlar, mevalar va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar

Oziq-ovqat toifasi	Mikroorganizm	Namunalarni saralash rejasi		Chegaralari		Analitik usul	Mezon qo'llaniladigan bosqich	Natija qoniqarsiz bo'lganda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar
		n	c	m	M			
2.5.1. Avvaldan kesilgan (foydalanishga tayyor bo'lgan) meva va sabzavotlar	E.coli	5	2	100 KOYE/g	1 000 KOYE/g	ISO 16649-1 yoki 2	Ishlab chiqarish jarayoni	Ishlab chiqarish jarayonlari gigiyenasini, xom ashyo tanlovini yaxshilash
2.5.2. Pasterizatsiya qilinmagan (foydalanishga tayyor bo'lgan) meva va sabzavot sharbatlari	E.coli	5	2	100 KOYE/g	1 000 KOYE/g	ISO 16649-1 yoki 2	Ishlab chiqarish jarayoni	Ishlab chiqarish jarayonlari gigiyenasini, xomashyo tanlovini yaxshilash

n – olingan namunalar soni

c – ko'rsatkichlar *m* va *M* oralig'ida bo'lgan namunalar soni

Natijalarni sharhlash:

Belgilangan chegaralar sinovdan o'tgan har bir namunaga qo'llaniladi.

Sinov natijalari sinovdan o'tgan jarayonning mikrobiologik nazorati sifatini ko'rsatadi.

E. coli:

- agar barcha namunalardagi natijalar $< m$ bo'lsa, qoniqarlidir
- agar m va M o'rtasidagi natijalar s namunalarda maksimal bo'lsa, qolgan namunalarda esa natijalar $< m$ bo'lsa, maqbuldir
- agar olingan natijalarning bittasi yoki undan ko'prog'i $> M$ bo'lsa yoki m va M o'rtasidagi natijalar s namunalardagidan ko'proq aniqlansa, qoniqarsizdir.

Qo'shimcha ma'lumotni 2005-yil 15-noyabrda qabul qilingan 2073/2005-sonli „Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mikrobiologik ko'rsatkichlar to'g'risidagi“ Reglamentdan (YI) topishingiz mumkin (CELEX 32005R2073).

Oziq-ovqat tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajalari (meva va sabzavot mahsulotlari uchun)

2-bo'lim: Mikotoksinlar

	Mahsulot	Eng yuqori darajasi (mkg/kg)
2.1. Aflotoksin		
2.1.9.	Inson tomonidan iste'mol qilingunga qadar tartibga solinishi yoki boshqacha tarzda fizik qayta ishlaniishi lozim bo'lgan yoki oziq-ovqat mahsulotlarida ingrediyentlar sifatida ishlatiladigan quruq mevalar	5,0
2.1.10	Inson bevosita iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan yoki oziq-ovqat mahsulotlarida ingrediyentlar sifatida ishlatiladigan quruq mevalar va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar	2,0
2.2. Oxratoksin		
2.2.3	Quritilgan uzum	10,0
2.2.8	Inson bevosita iste'mol qilishi uchun mo'ljallangan uzum sharbati, konsentratsiyalangan uzum sharbati, uzum nektari, uzum shirasi va konsentratsiyalangan uzum shirasi	2,0
2.3. Patulin		
2.3.1.	Meva sharbatlari, konsentratsiyalangan meva sharbatlari va meva nektarlari	50,0
2.3.3.	Bevosita iste'mol qilishga mo'ljallangan olmadan tayyorlangan mahsulotlar, shu jumladan olma kompoti, olma pyuresi, bundan 2.3.4. i 2.3.5-bo'limlarida ko'rsatilgan mahsulotlar mustasno	25,0
2.3.4.	Chaqaloqlar va go'daklarga mo'ljallangan va tegishli belgisiga ega bo'lgan olma sharbati va qattiq olmalardan tayyorlangan mahsulotlar, shu jumladan olma kompoti va olma pyuresi	10,0
2.3.5.	Chaqaloqlar va go'daklarga mo'ljallangan bolalar ovqati, bundan qayta ishlangan don mahsulotlari mustasno	10,0

3-bo'lim: Metallar

	Mahsulot	Eng yuqori darajasi (mg/kg nam vaznda)
3.1. Qo'rg'oshin		
3.1.10	Sabzavotlar. Bundan karam, bargli sabzavotlar, yangi uzilgan ko'kat, qo'ziqorinlar va suv o'tlari mustasno. Kartoshka uchun maksimal daraja tozalangan kartoshkaga taalluqli.	0,10
3.1.11	Karam, bargli sabzavotlar, qo'ziqorin	0,30
3.1.12	Mevalar. Bundan reza mevalar va mayda mevalar mustasno	0,10
3.1.13	Reza mevalar va mayda mevalar	0,20
3.1.15	Meva sharbatlari, konsentratsiyalangan meva sharbatlari va meva nektarlari	0,050
3.2. Kadmiy		
3.2.15	Sabzavot va mevalar. Bundan bargli sabzavotlar, ko'kat, bargli karam, qo'ziqorinlar, poyali sabzavotlar, ildizmevali o'simliklar va suv o'tlari mustasno	0,050
3.2.16	Poyali sabzavotlar, ildizmevali o'simliklar. Bundan selderey mustasno. Kartoshka uchun maksimal daraja tozalangan kartoshkaga taalluqli.	0,10
3.2.17	Bargli sabzavotlar, ko'kat, bargli karam, selderey, qo'ziqorinlar	0,20
3.4. Qalay (noorganik)		
3.4.1	Konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari. Bundan ichimliklar mustasno.	200
3.4.2	Konservalangan ichimliklar, shu jumladan meva va sabzavot sharbatlari	100

Qo'shimcha ma'lumotni oziq-ovqat mahsulotlaridagi ba'zi ifloslantiruvchi moddalarning maksimal darajalari to'g'risidagi 05.05.2023 yildagi Yning 2023/915-sonli Nizomida va 1881/2006-sonli qoidalarni bekor qilish bo'yicha Reglamentida topishingiz mumkin (CELEX 32023R0915).

Yevropadagi salohiyatli importchilar va tadbirkorlik uyushmalari

Tabiiy ingredientlar – qayta ishlangan mahsulotlar		
August Töpfer ATCO, Germaniya www.atco.de	1912-yilda Germaniyada tashkil etilgan. Asosiy mahsulotlar: shakar, kofe, dukkaklilar, quritilgan mevalar, yong'oqlar, kartoshka mahsulotlari va ozuqalar	Oziq-ovqat/nooziq-ovqat mahsulotlar sohasida ulgurji sotuvchi va yetkazib beruvchi
Worlée, Germaniya www.worlee.de	„Kimyoviy, tabiiy va kosmetik xomashyolar“ toifasidagi xomashyo va xizmatlar. Asosiy mahsulotlar: suvo'tlar, o'simlik komponentlari, quritilgan mevalar va sabzavotlar, ziravorlar va ziravorlar urug'lar, oshxona uchun ziravorlar, qo'ziqorinlar, moyli urug'lar	Yirik import qiluvchi/ qayta ishlovchi va ishlab chiqaruvchi
LenersanPoortman Group Depre, Niderlandiya www.lenersanpoortman.com	1803-yilda tashkil etilgan kompaniya asosan ziravorlar, urug'lar, dukkaklilar, quruq mevalar bilan xalqaro savdo qiladi	Oziq-ovqat va ozuqa ingredientlarini import qiluvchi
EcoTerra Nutfields, Germaniya www.eco-terra.com	Asosan organik mahsulotlarni jumladan urug'lar, tanlangan yong'oqlar, quritilgan va sublimatsiyalangan mevalar, oziq-ovqat qo'shimchalari importi, qayta ishlash va tarqatish bilan shug'ullanadi	Sanoat, ulgurji va chakana savdo uchun import qiluvchi va distribyutor
Tradin Organic, Niderlandiya www.tradinorganic.com	Dunyo miqyosida xarid qilish, eksportyor mamlakatning o'zida oziq-ovqat va ozuqa mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'z loyihalariga ega organik mahsulotlar savdosi bilan shug'ullanadi. Asosiy mahsulotlar: quritilgan mevalar, don, yong'oq, dukkaklilar, urug'lar, kokos, yog' va un mahsulotlari	To'liq xizmatlar imkoniyatiga ega bo'lgan treyder, distribyutor
Le Comptoir & Co, Fransiya www.andros.fr www.unjouruneepice.com	Andros homiyligida ziravorlar (shu jumladan qizilmiya) butun dunyodan import qilib, qayta ishlaydi yoki aralashmalar tayyorlaydi	Import qiluvchi/Umumiy ovqatlanish xizmatlari
Frank Hoffmann Konserven Victor, Germaniya www.victor-konserven.com	Konserva mahsulotlarini import qiladi. Asosiy mahsulotlar: loviya, no'xat, kapers, pomidor, qo'ziqorinlar va boshqalar	Import va eksport
Sabarot Wassner, Fransiya www.sabarot.com	Nafaqat import, balki o'simliklardan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi oilaviy korxona. Asosiy mahsulotlar: don va dukkaklilar, quritilgan sabzavotlar va urug'lar	Umumiy ovqatlanish va chakana savdo korxonalariga import qiluvchi va qadoqlash
Seeberger, Germaniya www.seeberger-snacks.com	Tabiiy gazak va yengil taomlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan oilaviy korxona. Asosiy mahsulotlar: quruq mevalar, yong'oqlar va aralashmalar	Import qiluvchi/umumiy ovqatlanish, Mehmonxona, restoran, kafelarga mahsulotlar; o'z savdo markasi ostida chakana savdo
Nature Food Kluth Maryland, Germaniya www.kluth.com	O'z qovurish sexi va taniqli o'z brendlari bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari distribyutori. Asosiy mahsulotlar: yong'oq, quritilgan mevalar, gazak aralashmalari	Import qiluvchi/qayta ishlovchi/distribyutor

Sarxil meva va sabzavotlar		
Greenyard Fresh, Belgiya / Germaniya va boshqalar www.greenyard.group/divisions/fresh	Dunyo bo'ylab sarxil meva va sabzavotlarning keng tanlovi	Yirik import qiluvchi/ chakana sotuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi
Nature's Pride, Niderlandiya www.naturespride.eu/en	Ekzotik meva va sabzavotlar	Yirik import qiluvchi/ chakana sotuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi
Eosta, Niderlandiya www.eosta.com/en	Organik va adolatli savdo mahsulotlari	Ixtisoslashtirilgan import qiluvchi/treyder
Wealmoor, Buyuk Britaniya https://www.wealmoor.co.uk/	Ekzotik va tropik mahsulotlar, tanlangan sabzavotlar, dorivorlar va ziravorlar	Yirik import qiluvchi/ chakana sotuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi
Grundhöfer, Germaniya www.grundhoefer-frankfurt.de/	An'anaviy va organik mevalar, shuningdek quritilgan mevalar	Yirik import qiluvchi/ chakana sotuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi

Batafsil ma'lumotlarni tegishli Yevropa ko'rgazmalari ishtirokchilarining kataloglaridan topish mumkin.

Tashkilotlar / Uyushmalar	
Yong'oq va quruq mevalar bo'yicha xalqaro kengash – International Nut and Dried Fruit Council INC https://inc.nutfruit.org/	A'zolari xabardor qilish va ularni birlashtirish bilan shug'ullanadigan xalqaro notijorat tashkilot. A'zolik mavjud, shundan so'ng xalqaro yong'oq va quritilgan meva sanoati bo'yicha statistik ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin
Yevropaning Meva va sabzavotlarni qayta ishlash korxonalari uyushmasi – PROFEL https://profel-europe.eu/	Milliy uyushmalar va kompaniyalarni birlashtiruvchi uyushma. Bozorlar haqida ma'lumotlarni taqdim etadi va a'zolariga aloqa o'rnatishga yordam beradi
Yevropaning Quruq mevalar va yong'oqlar, qayta ishlangan meva va sabzavotlar, qayta ishlangan dengiz mahsulotlari va ziravorlar savdosi federatsiyasi – FRUCOM https://frucum.eu/	Yevropada quritilgan mevalar, yong'oqlar, qayta ishlangan meva-sabzavotlar savdosi bilan shug'ullanuvchilarning vakillik tashkiloti. Ishchi guruh tuzish, ishtirokchilarning manfaatlarini xalqaro darajada himoya qilish
Gamburg birjasining tovarlar uyushmasi – Waren-Verein https://www.waren-verein.de/en/home-page/	Germaniyaning konservalangan, muzlatilgan mahsulotlar, quritilgan meva va sabzavotlar, iste'mol qilinadigan yong'oq va ziravorlar importchilari va vositachilari uyushmasi. Shuningdek, u a'zolar manfaatlarini himoya qilish va ma'lumotlar berish orqali xizmatlar ko'rsatuvchi sifatida ham ishtirok etadi. Xalqaro a'zolik ham mavjud.

Yevropadagi asosiy xalqaro oziq-ovqat ko'rgazmalari ro'yxati

Tabiiy ingredientlar – qayta ishlangan mahsulotlar		
BioFach https://www.biofach.de/en	Organik oziq-ovqat va ichimliklar, shuningdek, tabiiy kosmetika. Ingredientlar, tayyorlangan mahsulotlar, shuningdek, sarxil mahsulotlar uchun amal qiladi, faqat organik mahsulotlar	Har yili fevral oyida Germaniyaning Nyurnberg shahrida bo'lib o'tadi
IFE – International Food & Drink Event https://www.ife.co.uk/	Buyuk Britaniya bozoriga mo'ljallangan oziq-ovqat va ichimliklar mahsulotlari	Har yili mart/aprel oylarida; Buyuk Britaniyaning London shahrida
in-cosmetics https://www.in-cosmetics.com/global/en-gb.html	Shaxsiy parvarish vositalari uchun ingredientlar, an'anaviy va organik mahsulotlarga mo'ljallangan yetakchi tadbir	Har yili aprel oyida, o'tkaziladigan joyi o'zgaradi: asosan Fransiya Parij va Ispaniyaning Barselona shaharlarida bo'ladi
Vitafoods https://www.in-cosmetics.com/global/en-gb.html	Parhez uchun qo'shimchalardan tortib oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklargacha, dori-darmon va dorivor o'simlik vositalari, shuningdek, an'anaviy va organik xomashyolar	Har yili may oyida Ispaniyaning Barselona shahrida
Anuga https://www.anuga.com/	An'anaviy va organik mahsulotlarning ingredientlaridan tayyor mahsulotlargacha qamrab olgan Yevropaning eng yirik oziq-ovqat va ichimliklar savdo yarmarkasi	SIAL yarmarkasi bilan navbatma-navbat; Toq yillarda oktyabr oyida Germaniyaning Kyoln shahrida
SIAL https://www.sialparis.com/en	An'anaviy va organik mahsulotlarning ingredientlaridan tayyor mahsulotlargacha qamrab olgan Yevropaning eng yirik oziq-ovqat va ichimliklar savdo yarmarkasi	Anuga yarmarkasi bilan navbatma-navbat; Juft yillarda oktyabr oyida Fransiyaning Parij shahrida
Nordic Organic Expo https://www.nordicorganicexpo.com/exhibitor/english-tea-shop-uk-ltd/	Shimoliy Yevropa mamlakatlariga yo'naltirilgan organik va tabiiy mahsulotlar – oziq-ovqat mahsulotlari, salomatlik va go'zallik mahsulotlari	Har yili noyabr oyida; Shvetsiyaning Malmö shahrida
Food Ingredients Europe / Fi Europe	Sog'liq uchun foydali oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va ingrediylarga ixtisoslashgan ko'rgazma bo'lib, asosiy e'tibor organik va an'anaviy mahsulotlar sifatga qaratilgan	Turli joylarda navbatma-navbat, asosan Frankfurt (Germaniya) va Parij (Fransiya) da har yili noyabr oyining oxiri yoki dekabr oyining boshida
Sarxil meva va sabzavotlar		
Fruit Logistica https://www.figlobal.com/europe/en/home.html	Asosiy e'tibor an'anaviy va organik sarxil meva-sabzavotlar, muzlatilgan mahsulotlar, yong'oq va quritilgan mevalarga qaratiladi	Har yili fevral oyida Germaniyaning Berlin shahrida
Fruit Attraction https://www.ifema.es/en/fruit-attraction	Sarxil meva va sabzavotlar mahsulotlari	Har yili oktyabr oyida Ispaniyaning Madrid shahrida

Muharrir: A.Janiyeva
Dizayn va kompyuter tayyorlovch: A.Yldasheva

Nashriyot tasdiqnomasi
№9183-7961

Bosishga 2025-y xx xx ruxsat etildi.
Bichimi: 60x90 1/16. "Arial" garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: _ . Adadi ??? nusxa.

Nashriyot uyi "Baktria press"
Toshkent sh., Nukus k.
Tel.: +998 (93) 583-73-43
e-mail: baktriapress@gmail.com

_____ bosmaxonasida chop etildi
Adres: _____
Tel.: + 998 (93)

Germaniya federal kompaniyasi sifatida GIZ
Germaniya Federativ Respublikasi hukumatini
barqaror rivojlanishga ko'maklashish maqsadida
xalqaro hamkorlik sohasida belgilangan vazifalarni
amalga oshirishda qo'llab-quvvatlaydi.

Chiqish ma'lumotlari

Nashriyot
Deutsche Gesellschaft für
Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH
(Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati)

Bosh ofislar
Bonn va Eshborn shaharlari, Germaniya

“O'zbekistonda umumiy imtiyozlar tizimidan (GSP+)
samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlash”
O'zbekiston-Germaniya loyihasi

Chimkent ko'chasi, 7a
100029, Toshkent sh., O'zbekiston
Tel. + 998 71 280 67 51

www.giz.de

Muallif(lar)/Mas'ul shaxs(lar)/Muharrir(lar)
G. Kaxxarova, O. Sattorov / A. Janiyeva

Dizayn/Sahifalash
A. Yuldasheva

Rasmlar/Manbalar
GIZ arxivi / tashqi veb-saytlari
Internet havolalari
Ushbu nashrda keltirilgan tashqi veb-saytlarga
yo'naltirilgan havolalarning mazmuni uchun
javobgarlik har doim ularning tegishli noshirlariga
yuklanadi.

GIZ bunday mazmundan o'zini butunlay cheklaydi.
Ushbu nashrning mazmuni uchun GIZ mas'uliyatni
o'z zimmasiga oladi.

Nashr etildi

Toshkent shahri

Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot Federal
Vazirligining (BMZ) topshirig'i bilan

2025-yil, avgust

Nashr bepul tarqatiladi.

